

R.K. Djaliyova. B. Boymetov

HAYKALTAROSHIK



Farg'ona - 2008

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Farg'ona davlat universiteti*

Haykaltaroshlik

Farg'ona - 2008

*Pedagogika o'liy o'quv yurtlari uchun mo'ljallangan
«Haykaltaroshlik» nomli ushbu o'quv qo'llamada bo'lajak tasviriy va
amaliy san'at yonalishlari talabalariga haykaltaroshlik san'atining
qisqacha tarixi, unda ishlatiladigan materiallar, haykal yasash metodikasi
haqida ma'lumotlar berilgan. Kitobdan kasb - hunar kollejlari o'quvchilari,
to'g'arak rahbarlari va barcha tasviriy san'at-talimlarni foydalanishlari
mumkin.*

Mualliflar:

R.K.Djalilova B.Boymetov.

Taqrizchi:

M.Abdullayev Falsafa fanlari doktori, professor.

KIRISH

Pedagogika, boshlang'ich ta'lim va tasviriy san'at badiiy grafika va rassomchilik san'ati fakultetlarida oddiy jismlardan murakkab ijodiy asarlar yaratishda haykaltaroshlik fanining ahamiyati katta.

Talabalarining hayotidagi oddiy buyumlarni shakli, relyefli kompozitsiya, etraklar, insonni kalla tuzilishi va uning plastik anatomiyasini analiz etib haykaltaroshlikda texnologik xususiyatlarni o'rganadi.

1. Bortligni idrok etish;
2. Haykaltaroshlik kompozitsiyasi
3. Naturaga qarab haykal ishlash metodikasi (xayvon, qushlar, odam).
4. Haykaltaroshlikda anatomiyaning ahamiyati.

Haykaltaroshlik fani talabalarni fikrlashi estetik idroki, didini rivojlantirishni tasavvur va xotirasini o'sishida muhim rol o'ynaydi. Bortligni idrok etish mashg'ulotlari odatda mavzuli kompozitsiyalarni bajarishdan oldin o'tkaziladi.

Tabiatdagi, tovarak atrofdagi nafislik va go'zallikni ko'rish, bilish, idrok etish natijasida olingan taassurotdan amaliy, badiiy, ijodiy faoliyatlarda foydalanishi nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng iqtisodiy, ijtimoiy ma'naviy sohalarida, ayniqsa, ta'limni isloh qilish borasida misli ko'rilmagan ijodiy o'zgarishlar amalga oshirilmogda. Jumladan, Oliy Majlisning 1997-yil 29-avgust IX sessiyasida qabul qilingan «Ta'lim to'g'risidagi» qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» XXI-asrda O'zbekistonning ta'lim tizimini rivojlantirish borasidagi strategik yo'nalishini belgilab berdi. Bu esa unumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb - hunar kollejlari uchun ma'naviy jihatdan batkamol, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mohirona qo'llay oladigan, ijodkor o'qituvchi-kadrlarni tayyorlashdan iborat. Zero, prezident I.A. Karimov aytganidek, «Biz oldimizga qanday vazifa qo'yamaylik, qanday muammoni yechish zarurati tug'ilmasin, gap oxir-oqibat, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqaladi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajegimiz, mamlakatimizning kelajagi, o'zimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tayyorlashimizga bog'liq». Malumki, oliy o'quv yurtlarida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash, bir necha o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liq o'quv predmetlari asosida amalga oshiriladi. Shulardan biri haykaltaroshlik va plastik anatomiyadir. Bo'lajak mutaxassis o'qituvchi qalamtasvir sohasidagi perspektiva qonun-qoidalarini, yorug'-soya nazariyasi, shakllarning konstruktiv tuzilishi va nisbatlari borasida olgan bilimlarini haykaltaroshlikda naqsh bo'laklari shaklini yasash jarayonida va ko'plab boshqa mavzudagi mashg'ulotlarda mustahkamlaydilar. So'ngra inson qonmati haykalni tasvirlash mashg'ulotlari boshlanadi. Bu esa talabadan bevosita inson plastik anatomiyasi bo'yicha yuqori darajadagi nazariy bilimlarni egallagan bo'lishini taqozo etadi.

Tabiatdagi daraxt barglarini relyef va baralef tasvirlash xomaki rasm yoki loy plastilindan tuzatib va uni tasavvur orqali yasaydi. Haykaltaroshlik kompozitsiyalarida etrak qaxramonlarini, tabiat va odam plastik anatomiyasini kuzatish jarayonida, tabiatga sayohatlarda ularni tasavvurni fazoviy perspektiv rejajlik, tekislikni ko'rish

ijodiy amaliyotda qo'llaniladi.

HAYKALTAROSHLIK SAN'ATINI AHAMIYATI

Tasviriy san'atning turlaridan biri - haykaltaroshlik birlig yorug'-soyaga ega bo'lgan shakllar orqali makonda tasvirlanadi. Turli xildagi stol ustiga qo'yiladigan haykalchalar, park va xiyobonlarga o'rnatilgan haykal va yodgorliklar, binolarning devorlariga, amaliy buyumlar - tanga, znachok, medallarning yuzasidagi bo'rtna tasvirlar, haykaltaroshlik san'atining ko'rinishi hisoblanadi.

Odada haykaltaroshlik asarlari o'z ko'rinishiga qarab, dumaloq va qavariq (rel'ef) haykallarga bo'linadi. Dumaloq haykallarni hamma tomondan aylanib ko'rish mumkin bo'ladi. Masalan, maydon va xiyobonlardagi haykal va yodgorliklar, stol ustiga qo'yiladigan har xil haykalchalar shu turga mansubdir.

Haykaltaroshlikning ikkinchi ko'rinishi bo'lgan qavariq yoki bo'rtna haykallar, odarda, biror yuzaga bo'rtnib ishlangan bo'ladi.

Haykaltaroshlikda, deyarli rang ishlatilmaydi. Haykallar rangli, haykal uchun tanlangan material (masalan, marmar, grant, bronza va h.k.) belgilaydi. Ba'zan xalq haykaltaroshligida haykallarni bo'yash hollari ham uchraydi.

Haykaltaroshlik asarlari ham san'atning boshqa turlari kabi o'zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab, qator tur va janrlarga bo'linadi. Haykaltaroshlik turlari deganda, ma'monal haykaltaroshlik dekorativ haykaltaroshlik va dasgoh haykaltaroshligini tushunamiz. Monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, atqoli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida o'rnatilgan monument turlari xildagi yodgorliklar, haykaltaroshlik ansambllari kiradi. Odarda monumental haykaltaroshlik asarlari o'zida katta mazmuni anglatib, mustaqil xarakterga ega bo'ladi. Lekin shu bilan birga u bevosita ulug'vorlik va ta'sirchanlik bahsh etadi. Monumental haykaltaroshlik asarlarga xos bo'lgan xislatlardan yana biri, qahramonlarni ko'tarinki ruhda tasvirlashdir. Monumental haykaltaroshlik asarlari uzozdan ko'rishga mo'ljallanganligi sababli, katta-kata, yaxlit shakllardan keng foydalaniladi. Odam yuzidagi mayda detallar, kiyimdagi bog'lanishlar, undagi mayda detallar ko'rsatilmaydi.

Istirohat bog'lar, xiyobonlar, ko'cha va parklar, shuningdek, me'morchilik binolarning devorini bo'yash uchun ishlatiladigan haykallarining hamma turlari dekorativ haykaltaroshlik san'atiga kiradi. Agar monumental haykaltaroshlik asarlarida obrazlar ko'tarinki ruhda ishlanse, dekorativ-haykaltaroshlik asarlarga ega obrazlar biton yumoristik tarzda talqin etiladi. Haykaltaroshlikning bu turida turli hayvonlar shakli ham keng ishlatiladi.

Binolarning devorlariga ishlatiladigan turli bo'rtna tasvirlar, amaliy san'at buyumlarining yuzasiga ishlangan, tasvirlar, turli fontanlar, panjaraalar, badiiy darvozalar, chinnidan yasalgan turli haykalchalar, lattadan ishlangan o'yinchoqlar ham shu haykaltaroshlikning ko'rinishi hisoblanadi.

Dasgoh haykaltaroshligiga mustaqil mazmunga ega bo'lgan, san'atning boshqa turlariga tobe bo'lmagan asarlar kiradi. Bunday asarlar ko'rgazmalar uylariga qo'yish uchun mo'ljallangan bo'ladi. Haykaltaroshlikning bu turida voqelik butun borlig'i

bilan aks ettiriladi, hamda inson psixologiyasidagi nozik o'zgarishlar, uning ichki ruhiy kechimmalari, kayfiyatini ochib borish imkoniyati katta bo'ladi.

Haykaltaroshlikda ijodkor yorug'-soyalar o'yindan foydalanish orqali o'z haykallarini ta'sirli bilan u ham jonlanadi, yorug'likning o'zgarishi bilan undagi yorug'-soya to'vlanishi ham o'zgaradi, natijada, undan tomoshabin oladigan taassurot ham o'zgarib boradi. Tungi oy nurlarida shu haykalning o'zi yana bir go'zallik kashf etadi. Shuning uchun haykal turli paytda kishida turlicha taassurot qoldiradi.

Haykaltaroshlikda insonning faqat tashqi ko'rinishi, inich turgan holati yoki harakatidagi paytini aks ettirish, bilan uning imkoniyati inilish va o'lmishda bo'lib o'lgan voqealikka qayg'u'rishi ham o'z ifodasini topadi.

Haykaltarosh asarida insonning revarak atrofiga bo'lgan munosabati ham, qalbidagi izitirob ham ishonarli talqin etilishi mumkin. Bunda eng avvalo haykaltaroshning o'zi ziyrakligi odam gavdasi va mimik o'zgarishlarini to'g'ri ifodalashi muhim o'rinni egallaydi.

Haykallarining har biri bir taglikka (postament yoki p'edestalga) o'rnatilgan bo'ladi.

Ba'zi haykaltarosh o'z maqsadini ro'yobga chiqarishda bir nechta taglikka o'rnatilgan haykallar, rel'eflardan ham foydalanishi mumkin. Bunday holda bu hamma haykallar turli-ansambli bir-biri bilan bog'liq bo'lib, hammasi birgalikda bir mazmuni anglatadi.

HAYKALTAROSHLIK MATERIALLARI VA ASHYOLAR BILAN ISHLASH TEKNOLOGIYASI

1. Haykaltaroshlik ashyolari bilan tanishish.
2. Ishlash texnologiyasi.
3. Haykaltaroshlikda ashyolar bilan ishlashda har xil materiallardan foydalanadi.
1. Plastilin;
2. Loy;
3. Ishlash uchun haykaltaroshlikdagi qurollardan foydalanish;
4. Ishlash stanogi, haykaltaroshlikda model va buyumlarni to'g'ri qurish, ishlashga har tomonlama moslashtirilgan moslama asosida yasash;
5. Talabani tayyor materiallarda to'g'ri foydalanish;
6. Amaliyotda ishlash qurollarini tayyorlashga to'g'ri qo'llash.
1. Haykaltaroshlik o'qitish topshiriqlarida qisqa vaqtida eskiz variantini yasash. Talaba bajarayotgan ismni plastilin yoki loyda yasaydi. Loyda ishlash usulxonada. Yakuniy nazoratdan oldin tayyorlash mumkin.

Loy - yaxshi material xom-ashyo hisoblanadi. Uni rangi har xil bo'ladi: sarg'ich, ko'kimil, kulrang, qizil va boshqalar. Boshqa ranglarga nisbatan kulrang eng yaxshi hisoblanadi. Uning tarkibida - o'zgachaligi bilan (biagorodniy), rang nozik xususiyatli yog'yumshog'lik, mayin tabiiyligi bilan farqlanadi.

Loy ikki holda bo'ladi: yog'li va yog'siz. Yog'siz ishga yarqosiz chunki haykaltaroshlikda qo'llashga to'g'ri kelmaydi, tarkibida qumlar bor. Yog'li loy

ko'proq daryo qirg'og'ida uchraydi. qaytadan loyga ishlov berilsa yaxshi xom-ashyoga aylanadi.

Usaxonaga olib kelib quritiladi va maydalaniib, poroshok shakliga kelitirib setkadan o'tkaziladi. Quruq loyni suvga chelak yoki idishga uyitiladi. 3-4 kundan keyin ishga tayyorlanadi. Loy ishlaganda qo'lga yopishmasa ishga tayyor bo'ladi. Ish boshlashda loyni xususiyati xar xil bo'lishi mumkin. Ish boshlashda o'racha holatdagi loydan foydalaniladi. Ish tugatishda yumshoqroq loydan foydalaniladi. Saqlash tartibi idishda chelakka suv quyib yoki salafanda o'raltib qo'yiladi, havo kirmasligi kerak. Havo kirta qutib ishga yarqisiz bo'ladi. Loyda amalda yasash ma'lum vaqtda bajariladi. Shunday tashlab ketilsa loy qutib yoritib ketadi. Yakuniy nazoratga oz vaqt qolganda ishlash kerak. Qutib qolsa xususiyati yo'qoladi.

HAYKALTAROSH SAN'ATIHAQIDA

Tasviriy san'atning turrlaridan biri bo'lgan haykaltaroshlik asarlari boriqdagi hajmga ega bo'lgan barcha shakllar asosida tasvirlanadi. Mayda haykalchalardan tortib, park va hiyobonlarga o'rnatiladigan turli mahobatli haykallar, yodgoriklar, binolarning devorlariga ishlanadigan rilyeflar, tanga, nishon, medal kabllarning yuzasidagi bo'rma tasvirlar haykaltaroshlik san'atining turli ko'rinishlaridir (1,2,3,4) rasmlar.

Haykaltaroshlik asarlari o'zaro ishlalish joyi, bajaradigan vazifasi va tayyorlanish usuliga qarab turlicha nomlanadi. Ular oadida dumaloq va qabariq ko'rinishda bo'ladi. Dumaloq haykallarni hamma tomondan aylanib ko'rish mumkin bo'lsa, qabariq haykallarni yuzaga bo'r tirib ishlanganligi sababi faqat bir tomondan ko'riladi.

Qabariq haykallar rilyef deb ataladi. Rilyef frantsuzcha so'z bo'lib "yuz" degan ma'noni anglatadi. Rilyefli haykallarda asosiy obrazlar bilan bir qatorda kenglik, tabiat manzaralarining ko'rinishi ham aks etadi. Shuning uchun bunday rilyeflarni ba'zan perspektivali rilyef deb ham yuritiladi.



1-rasm. *Parro* tasviri
tutilgan
Kushon davri tangasi



2-rasm. *Sassanidlar* davri
kumush tishli *Avon shohi*
Shapur II o'nda. *Itas*.

Rilyef o'z navbatida ikki turga bo'linadi. Ular barelyef va gorelyefdir. Barelyef ham frantsuzcha so'zdan olingan bo'lib, «past» rilyef degan ma'noni anglatadi. Barelyefda haykal tekis yuzaga nisbatan bir oz qabargan bo'lib, uning qalinligi


o'zining haqiqiy hajmining yarmidan oshmaydi (5-rasm).

Tanga, nishon, orden va medal yuzalaridagi bo'rma tasvirlar bunga misol bo'la oladi. Barelyeflar ayniqsa amaliy sarfat buyumlarini, me'morchilik binolarni bezashda juda qo'l keladi. Qadimgi hayotda ishlatiladigan turli xil buyumlar: ko'za, gulton.

O'zbek haykaltaroshligi dunyo haykaltaroshligining bir qismi

Haykaltaroshlik —inson faoliyatining eng qadimgilaridan bo'lib, birinchi ish qurollari chaqmoqrosh va kamon qatorida ibtidoiy odam g'or devorlariga tirnab tasvirlar tushirgan va yo'nib turli dumaloq tasvirlar ishlagan qurol ham bo'lgan.

Dunyoning turli qismlarida olib borilgan arxeologik qazilmalar eramizdan avvalgi 25 ming yilliklarga taqaladigan davrlardan bizga ko'plab ayol kishi tasviri ishlangan haykalchalar yetib kelgani ma'lum bo'ldi. Ayollik jozibasi va ayollik nazokatidan bebxara bu haykallarda faqat ishlash va tug'ish uchun yaratilgan ayol obrazini ko'ramiz. Bu haykalchalarga -insoniyat ibtidosi, azaliyat boshi timsolini beruvchi xudo obrazi sifatida baho berishgan.



Xalqlar keladi —ketadi, davlatlar g'urkiraydi —tanazulga uchraydi, lekin san'at abadiy. Tarag'yoishunos barcha bosqichlarida haykallar insoniyatning hamrohi bo'lgan. Haykallarga qarab xalq hayoti, urf —odalari, madaniyati darajasini aniqlash mumkin. Lekin dastlabki haykallar vazifasiga ko'ra hokimiyatning ulug'vorligi, qudratini ifodalagan. Bu sohada Misr san'atiga nazar tashlashning o'zi kifoya. Fir'avn oddiy odamlar oldida qudratli ilohiy shaxs sifatida aks etdiriladi. Uning tasviri oddiy odamlarga nisbatan bir necha barobar ulkan qilib tasvirlangan haykallar kattaligidan kishilarda qo'rquv va xadik uyg'otgan. Xatshapsut ibodatxonasida fir'avn tasviri 200 marra ifodalangan. Fir'avn boshli sfinkslar ibodatxonaga eluvchi yo'lining ikki tomonida tizilib turishgan.

Qadim haykaltaroshlik nat'qat hokimiyat quroli, balki diniy vosita sifatida ham vazifasini ado etadi. Qadimgi Hindiston haykallari diniy mavzu va syujetga asoslanib, ilovat va dunyoviy tarkidunyochilikka da'vat etadi.

Deyarli barcha davlatlarda, jumladan, bizning Markaziy Osiyoda ham haykaltaroshlik deyarli bir xil yo'nalishda taraqqiy etadi. Turkmanistonning Oltin tepa qo'rg'onidan topilgan sopol haykalchalardan bundan qariyb 60 ming yil ilgari aholi o'z diniy e'tiqodi bo'yicha haykallarga sig'inganini ko'rsatadi.

Eramizning VIII asriga kelib bunyod etilgan Indoneziya hududidagi Bolobudur ibodatxonasi bo'rma haykal kompozitsiyalarida diniy syujet bilan bir qatorda oddiy insoniy hayot sahnalarini ham ko'rishimiz mumkin. Demak, sharq haykaltaroshligida VIII asrga kelib ijtimoiy hayot ifodasi o'z aksini topa boshladi.

Men bu o'rinda bejiz sharq madaniyatiga to'xtalib o'tamayman. Markaziy

Osivo xalqlari madaniyatining rivojlanish an'analari bevosita butun sharda kabi Budda, Zardushtilik ta'limoti bilan bog'liq. Respublikamizning Dalvarzintepa, Tuproq gal'a, Kuyov qo'rg'on, Afrosiyob, Budrach tepa, Ishtixon, Quva, Chetlak, Varaxsha, Toyloq kabi manzilgohlarida eramizdan avvalgi 3-mingmunchi — eramizning VIII asri oralig'idagi davrga oid Budda va Zardushtilik bilan bog'liq haykaltaroshlik namunalari topilgan. Bu haykaltaroshligimizning uzoq tarixiy o'timishi borligidan dalolat.

Zamonaviy O'zbek haykaltaroshligining bugungi holati na faqat sharq, balki ilg'or g'arb san'atining ham ulkan ta'siri tufaylidir. Shu o'rinda g'arb haykaltaroshligi tarixiga nazar tashlab o'tish joizdir. Yevropa madaniyati va san'ati jumladan, haykaltaroshligi tarixi antik davrdan insoniyat tarixining eng yorqin sahifalari bo'lmish grek — Rim madaniyati davridan boshlanadi. Shu davrlar ichida grek klassikasi davri eramizdan avvalgi V-IV asrlar eng sermaxsul davr bo'lib, bu davrda Mironning «Diskobol», Fidiyning Parfenon ibodatxonasi barelyefflari va Afina haykali, Lisippning «Geraklining Nelbey sheri bilan jangi» kabi durdona asarlari yaratilgan. Grek haykaltaroshligining muhim jihati insonni ulug'lashdirlar. Insonlar haykali xudolar haykali kabi ishlangan. Maydonlar, dengiz qirg'oqlari, tog' etaklari hamma joyda haykallar. Plutarx yozganki: «Afinada odamlardan ko'ra haykal ko'p».

Feodal tuzum davrining XI-XV asrlarida san'at va madaniyatdagi ko'tarinkilik haykaltaroshlikni ham qamrab oldi. Lekin haykallar ibodatxonalarga ko'chib o'tidilar. Frantsiya va Germaniyada yorqinroq ifoda topgan bu ko'tarinkilik davrining XI-XV asrlari Roman davri, XII-XV asrlari Gotika davri deb nom olgan. Roman davri haykallariga xos xususiyatlar shundan iborat ediki, haykallar va haykal kompozitsiyalari asosan portallarga ishlab alohida ajratib turgan. Gotika haykallari bino qismlari sirida shunday zich joylashganki, binoning chiziqlari ular osida sezilmay ketadi.

Tarixda Yevropa uyg'onish davri deb atalgan XIV-XVI asrlarda haykaltaroshlik san'atining Mikelanjelo, Leonardo Da Vinchi, Giberi, Donatello kabi daholari ijod etishgan. Birgina Mikelanjeloning «David» haykalini olish mumkin. Bu asar hozirgi kunda ham bo'lajak rassomlarga maxorat sirini o'rganishlarida ko'mak bermog'da.


XVII-XVIII asrlarda «Barokko» deb nomlangan uslub hukmronlik qildi. Barokkoga o'la darajada nazokat, noziklik, shakllarning xashamdorligi xosdir. Kompozitsiyada bir butunlikdan ko'ra nozik ishlov berilganlik birinchi o'ringa qo'yilgan. Uslublar almashuvi natijasida XVIII asrda antik davr san'atiga chugur xurnat bilan qaragan klassitsizm yuzaga chiqdi. Oddiy odamlar hayoti haykaltaroshlik uchun begona bo'lib qoldi. Qat'iy chiziqlar tavoze va idealashtirilgan hayot barehlasi davlat manfaati bilan birlashtirildi. Kozlovskiyning Suvorov portretida qari sarkardani yosh, jo'shqin yigit timsolida ko'ramiz.

XIX asrning 20-30- yillari eng ilg'or uslub bo'lib qolgan romantizmi dunyoga kelirdiki, haykaltaroshlar hozirgi zamonnga, real dunyoga qaytishdi. Romantizm


qobi'ndan realizm oqlini o'sib chiqdi. Realist rassomlar oddiy insonlarning kundalik tashvish o'ylarini o'z asarlarida ko'proq ko'rsata boshlashdi. Opkushinning «Pushkin» portreti, Mikeshinning «Bogdan Xmelinskiy» asarlari uning yaqqol namunasi.

XIX-XX asr boshlarida Yevropa haykaltaroshligida impresionizm ogimi dunyoga keldi. Frantsuz haykaltaroshlari Roden, Burdel, Mayol asarlari dunyoga tanildi. Rossiyada Golubkina, Konenkov, Mateev, Trubetskiy kabi ilg'or haykaltaroshlar ijod qilishdi. Golubkina asarlari insonga muhabbat, unga ishonch ruhi bilan sug'orilgandi. Uning har bir timsoli inson ruhiyatining go'zalligini ochib beradi.

Italiyan Djakamo Mantuning Rimdagi Avliyo Pyor ibodatxonasi eshigiga antifashistik ruhda ishlangan bo'rma haykallari nemis Frits Kremening «Buxenval'd tuqunlari» asari, Finn Vyaynyo Aaltonenning «Tinchlik» asarida xalqlar do'stligi, insoniyatning yovuzlik ustidan g'alabasi kuylangan. Yevropa haykaltaroshligi hozirgi kunda ham turli qarama-qarshi oqimlar ta'sirida rivojlanib bormog'da.



3-rasm. Sher bilan oltinayotgan Gerakl. Haykaltarosh Lisipp. Er. oldingi V asr. Marmar



4-rasm. Amir Temur ko'rsatmasiga ko'ra 1399 yil Usto Al-Aziz tomonidan ishlangan bronza ko'zoni. Diametri 2 m, 45 sm, og'irligi 2 tonna. Arab yozuvlari va naqshlar bilan bezatilgan.

qurol-aslahalarning yuzalarini barelyefflar bilan bezaganlar, binolarning devorlariga


turi hayotiy voqealarni aks ettiruvchi bo'rtma tasvirilar ishlaganlar (6,7,8-rasmlar).

Gorelyef so'zi ham fransuzcha bo'lib, «baland» relyef ma'nosini bildiradi. Haykaltaroshlikning bu turida tasvirilar yuzadan sezilarli darajada bo'rtib chiqqan bo'lib, uning qalinligi o'zining haqiqiy hajmining yarmidan oshgan bo'lishi shart. Gorelyefga ko'plab tarixiy voqealarga bag'ishlab ishlangan yodgorliklar misol bo'lishi mumkin (9-rasm).

Bu yodgorlikdagi ayrim haykallar, masalan, oldinda tasvirlangan obrazlar, yuzaga nisbatan juda bo'rtib chiqqan bo'lsa ham, lekin ular asosiy kompozitsiya yuzasiga yopishgan holda ishlangan. Bu yodgorliklarda relyefning ikki turini ham uchratish mumkin. Lekin gorelyef unda yetakchi o'rinni egallaydi.


Haykaltaroshlikda relyefning yana bir turi mavjud bo'lib, bu o'yib ishlangan relyeflardir. Bunday relyeflar odarda tekis yuzaga o'yib ishlanadi. Yuzani o'yish natijasida hosil bo'ladigan yorug'-soya o'yini hisobiga tasvir ko'zga tashlanadi. Bunday relyeflarning imkoniyati chegaralangan bo'lganidan ular amalda juda kam qo'llaniladi. Ular qadimgi Misrda ko'plab ishlatilgan.

Haykaltaroshlik asarlarini yaratish uchun turli xildagi materiallardan foydalaniladi. Bu materiallar haykalga turli xarakter va mazmun berishda xizmat qiladi. Masalan, tosh-granitda ishlangan haykallar kishida ulug'vorlik, abadiylik baxsh etsa, aksincha marmardan ishlangan haykallar nozik, ko'rkam ko'rinadi (10-rasm).



5-rasm.

Proloney va Arslon Filadelfiyaning "Korneya Gonzag" bo'rtma tasviri. Eranizmdan avvalgi III asr Uch qavatli Sardoniya qimmatbaho toshidan ishlangan.



6-rasm. Qadimgi Misr haykaltaroshligi.

7-rasm. Dekorativ bezatilgan qilich qini. Turkiya. XVI-XVII



8-rasm. Chinni ko'za. Rossiya. XIX asr.



9-rasm. «Musiqachilar», Aytondan topilgan frizlar. O'zbekiston. II asr.


Shuning uchun haykallar o'zining mazmuni va o'rnatiladigan joyiga qarab har xil materiallardan ishlanishi mumkin. Haykaltaroshlik materiallari quyidagilardan iborat: plastin, loy, yog'och, metall, marmar, granit, suyak, serent, gips va hokzolari. Qimmatbaho metallar-oltin, kumush, nikelar ham haykaltaroshlikda qo'llaniladi. (11, 12, 13-rasmlar).

Haykaltaroshlikda, deyarli rang ishlatilmaydi, lekin xalq haykaltaroshligida haykallarni bo'yash hollari uchraydi. Bunga O'zbekiston hududidan topilgan qator haykaltaroshlik asarlari misol bo'la oladi. (14-rasm).

Haykaltaroshlik asarlari ham tasviriy san'atning boshqa turlari kabi o'zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab qator tur va janrlarga bo'linadi. Haykaltaroshlik turlari deganda biz monumental, dekorativ va dastgoh haykaltaroshligini tushunamiz. Monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, aqoli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida o'rnatilgan yirik o'lchovdagi, turli xildagi yodgorliklar haykaltaroshlik ansambllari kiradi. Bunga misol qilib Ona Vatanimizning ko'plab shaharlarida davlat va jamoat arboblari, yozuvchi-shoiraning haykallarini keltirishimiz mumkin.




10-rasm. Jan Antuan Gutton. (1741-1824 yillar) Volter haykali. Marmar. 1781 y.




11-rasm. Tojikistonning Garm viloyatidan topilgan oltin haykatchalar. VII-VIII asrlar

Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Abu Rayhon Beruniy va boshqalar. Odatda monumental haykaltaroshlik asarlari o'zida katta mazmuni anglatib, mustaqil xarakterga ega bo'ladi. Lekin shu bilan birga u bevosita muhit bilan bog'liq bo'lib, me'morchilik binolari hamda tabiat bilan uyg'unlikda bo'lishi mumkin. Bu unga yanada ulug'vorlik va ta'sirchanlik baxsh etadi. (15, 15a-rasmlar).

Monumental haykaltaroshlik asarlari xos bo'lgan xususiyatlardan biri bu asar qahramonlarini ko'tarinki ruhda tasvirlashdir. Monumental haykaltaroshlik asarlari doim ochiq havoda turish uchun mo'ljallangan bo'lganligi sababli ular uzoq vaqt turadigan qattiq materialdan, masalan, tosh, bronza, granit va betonlardan ishlanadi. Butandan tashqari monumental haykaltaroshlik asarlari uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi sababli, ularda katta-katta, yaxlit shakllardan keng foydalaniladi.




12-rasm. Shah Amengolep III haykali. Gora Granit Eramizdan avvalgi XIX asr




**14-rasm. Xalqayondan topilgan jangchi haykali.
Bo'yalgan loy. Yangi, eraning boshlari.**

1. Haykaltaroshlik asarlari ham tasviriy san'atning boshqa turlari kabi o'zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab istirohat bog'lari, hiyobonlar, ko'chalarda, shuningdek, me'morchilik binolarining devorlarini bezash uchun ishlatiladigan haykallarning hammasi turli dekorativ haykaltaroshlik san'atiga kiradi. Haykaltaroshlik san'atining bu turi monumental haykaltaroshlikdan shu bilan farq qiladiki, agar monumental haykaltaroshlik asarlari o'zida mustaqil mazmuni anglatib, me'morchilik va tevarak-atrofga bog'liq bo'lmagan holda kishiga mustaqil fikrni bera olsa, dekorativ haykaltaroshlik asarlari esa bevosita me'morchilik kompozitsiyasi bilan bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari agar monumental haykaltaroshlik asarlarida obrazlar ko'tarinki ruhda ishlangan, dekorativ haykaltaroshlik asarlarida esa obrazlarni bir oz engil yumurtalik tarzda talqin etib, bo'rtitiladi.




15-rasm. Amir Temur haykali.



15-rasm a. Mirzo Ulug'bek haykali


Bunga xalq badiiy ijodiyoti haykatchalarini misol qilish mumkin. Haykaltaroshlikning bu turida turli hayvon va qushlar shakli keng ishlatiladi. Binolarning devorlariga ishlangan turli bo'rtma tasvirlar, amaliy san'at buyumlarining yuzasiga ishlangan tasvirlar ham dekorativ haykaltaroshlikka kiradi. Turli favvoralar, panjaralar, darvozalarga ishlangan badiiy bezaklarga ham dekorativ haykaltaroshlik namunalari sifatida qaraladi. (17-rasm). Chinnidan yasalgan haykatchalar, loydan ishlangan o'yinchoqlar ham shu haykaltaroshlikning ko'rinishi hisoblanadi. (15-rasm). Dastgoh haykaltaroshligiga o'zida mustaqil mazmuni anglatadigan asarlar kiradi. Bunday asarlar ko'rgazmalarga, interyerlarga qo'yish uchun mo'ljallab ishlanadi. Haykaltaroshlikning bu turida voqealik o'zining butun borlig'i bilan aks etadi.




**16-rasm. A. Muxtorov, «Taka urishtirish»,
«Xo'ja Nasriddin», 1972-y**

Haykaltaroshlik san'atining bu turida inson psixologiyasidagi nozik o'zgarishlar, uning ichki ruhiy kechimmalari, kayfiyati hamda xarakterini ochib berish imkoniyatiga ega.

Dastgoh haykaltaroshligining ko'rinishlaridan biri byustdir. U odam portretini gavdasi bilan aks ettiruvchi dumaloq haykallar guruhiga kiradi. Haykaltaroshlik san'atining yana bir ko'rinishi-terrakota hisoblanadi. (terrakota-italyancha so'z bo'lib "pishirilgan loy" ma'nosi bildiradi). Terrakota keng mahoda loydan yasaliib, xumonda pishirilgan haykaltaroshlik asarlardir. (18,19-rasm).



17-rasn. Dekorativ punjalar namunasi.




18-rasn. *Ehtak va ayol haykali. Terrakota. Asr boshlari. Varahsha.*

Haykaltarosh asarida insonning tevarak-atrofga bo'lgan munosabati, qalbidagi izirob ishonarli talqin etiladi. Bunda, albatta, eng avvalo haykaltaroshning o'la ziyrakligi, tasvirlash qoidalarining puxta egallaganligi odam gavdasi va ramik o'zgarishlari borasida plastik anatomiya sohasidagi yuqori bilimlarga ega bo'lishini taqazo etadi. To'g'ri topilgan harakat, yuzdagi mimik holat haykalni ta'sirli ifodalash uchun zamin yaratadi.

Haykaltaroshlik asarlarida insonning taqat tashqi ko'rinishi, tinch turgan holati yoki harakaidagi paytini aks ettirish bilan kifoyalannmay, undagi ichki kechimmalar, his-hayajon va g'amginlik, kelajakka intilish kabi holatlar ham o'z ifodasini topadi.

19-rasn. *Haykatchalar Terrakota, Sintszyan, Asr boshlari.*



Ikki-uch buyumdan tashkil etilgan natyurmorning relyefini ishlash (material: loy, plastilin).


Talabalar natyurmortlarni bajarish bo'yicha zarur bo'lgan asosiy nazariy masalalarni qalamtasvir usullarida o'rganib, amaliy ko'rsatmalar bilan tanishib bo'lganlar, shuning uchun natyurmort kompozitsiyasi, tematik mazmuni, kompozitsion markaz simetriya, nisbatlar kabi masalalarda to'xtalib o'tishimiz zarur emas. Faqatgina haykaltaroshlikka oid masalalarni ko'rib chiqamiz. Relyef bajarish-haykaltaroshlikka o'qitish umumiy tizimidagi murakkab bosqichdir. Relyef ustida ishlash talabdan nafaqat qalamtasvir sohasida, balki perspektiva bo'yicha kerakli tayyorgarlikni talab etadi. Shuningdek, turli hajmga ega shakllarni shartli bo'shliqda tahlil qilish va taqqoslash mahoratini ham talab qiladi.

Dumaloq haykaltaroshlikdan farqli ravishda relyeflar tekislikda tasvirlanadi va devor bilan yaxlitlikni tashkil etib, uni bezatish uchun xizmat qiladi.

Agar qalamtasavvirda buyum shaklining hajmi chiziqlar, yotug' soya va tuslar nisbatlari hamda to'g'ri chiziqli perspektiva yordamida yaratilsa, relyefli tasvirda esa haykalaroshlik vositalari va hajmi perspektiva qonunlaridan foydalaniladi.

Relyef - umumiy tushuncha bo'lib, hajmga qarab, barelyef (past relyef) va gorelyeflarga (baland relyef) bo'linadi. Relyefli tasvirning chuqurligini tamlash relyefning vazifasi va uning ko'rsatilish joyiga qarab olinadi. Yaqin masofadan kuzaish uchun relyeflar ancha yuzaroq bajariladi. Relyefda hamma predmetlar hajmi asosiy tekislikka parallel ravishda kichrayadi. Bu kichrayishlar o'z o'zidan erkin bo'lmaydi, balki perspektiv kichrayishlar ma'lum qonunlarga bo'ysunadi. Relyeflar tuzilishining qonuniyatini predmetning eng keng joyidan kesishish tekisligini o'ikazib predmet proektivasi ko'rinishini tasvirlashda yaqqol ko'rish mumkin. Dastlab, biz oddiy bir predmetli naqurmorning relyefda qurtish printipini ko'rib chiqamiz.

20, 21, 22 - rasmlarda oddiy bir ko'zachaning old va yuqori tomonidan ko'rish chizmalari tasvirlangan. Bu erda s, e chiziqlari uning eng keng tomonini bildiradi, a, a - kesishish tekisligi bo'lib, tasvirga parallel ravishda ko'za hajmini teng ikkiga bo'ladi: BGDE esa - buyum tekisligi. 20-rasm.



20-rasm. Ko'zani fazoda joylashishi. 1-fon, 2-buyum tekisligi

21-rasm. Ko'za relyefning sxematik tasviri. V-fon, 2'-buyum tekisligi.


22-rasm. Ko'za hajmini perspektiv qisqartishi o'ngati qurish rejasi.

Natyvda kichrayib boradi va ko'zaning aylana hajmi ellips shakliga yaqinlashib boradi. 21 - rasm

B D chuqurligi perspektivadagi tasvir chuqurligini belgilaydi. Relyef qurishni yanada chuqurroq tushunib olish uchun ko'za relyefi chuqurligini 8 sm deb olamiz.

Bunda "oltin kesim" qonuniga binoan 8 sm ni ko'za hajmi 5:3 nisbatlarda ifodaladi. Bu esa (22-rasm) o'ra tekislik a a relyef chuqurligini ikki teng bo'lmagan qismga 5:3 nisbada bo'ladi, 5 qismi ko'rinib turgan hajmi bo'lsa, 3 qismi ko'rinmaydi. Lekin u haqiqiy mavjud hajm bo'lib, odam ko'zani chekki hajmi chiziqlarini tekislikning s nuqtalarida ko'ramiz.

Shu tariqa ko'zachani relyefda tasvirlanganda uning (soyasi) tashqi konturini ko'rsatuvchi chiziqlarni tekislikdan 5:3 nisbatdagi proporsiyada chizish kerak.



23-rasm. Naqurmorning xaqqoniy ko'rinishi va rejasi. 1,2,3 buyumlarining o'ra chiziqlari.

24-rasm. Naqurmorning xaqqoniy ko'rinishi va rejasi. 1',2',3' — buyumlarining o'ra chiziqlari.

25-rasm. Naqurmorning xaqqoniy punktir chiziqlar bilan belgilangan 1,2,3,4,5 raamlar bilan —haim nuqtalari ko'rsatilgan.

Ko'zacha konturini ko'rimaydigan qismini tekislikka ichki yo'nalishda s s nuqtalari bo'yicha kesiladi. 23 - rasmda ko'zaching ko'rimaydigan qismi katakli qilib shtrixlab ko'rsatilgan. Endi murakkabroq bo'lgan naturnorm rel'yefi tasvirini ko'rib chiqamiz. Kompozitsiyada ko'zacha yoniga metall idish va olmani qo'yamiz. Bunday naturnormning tashqi ko'rinishi va haqiqiy joylashishi old va yuqori tomonlarining ko'rinishlari 23-rasmda ko'rsatilgan. Yuqoridan qaraganda 1, 2, 3 raqamlari bilan predmetlarning o'ra tekisliklari belgilangan. Endi naturnormning haqiqiy hajmlarini rel'yefda bajarib, u tekis ellipsoid shakli ko'rinishida bo'ladi. (25-rasm).

1, 2, 3 raqamlari bilan rel'yef tasvirlangan shaklning o'ra tekisliklari belgilangan. Tarixdan ko'rinib turibdiki, har bir shaklning o'ra tekisligi rel'yef chuqurligini 5:3 nisbatda bo'ladi.

Naturnormdagi turli shakllar rel'yefni tasvirlab ko'rsatganda ularning naturnormdagi o'zaro haqiqiy nisbalaridan kelib chiqish kerak. Bizning misolimizda olmaning o'ra chizig'i ko'zaching eng keng joyidan aytaylik, uch marta kichikdir. Shuning uchun shakllarni tasvirlaganda olma rel'yefi chuqurligini ko'zacha rel'yefi chuqurligidan uch marta kichik olish lozim.

Rel'yefi tasvirilar ishlaganda matematik hisoblar bo'yicha emas, ishni badiiy sezgi va mantiqqa tayanib ko'z bilan chamalab bajariladi. Natijada naturnorm fazoviy va hajmi ifoda etiladi. Kompozitsiyada shakllar tekislikdan turli holatlarda joylashishi (yaqin yoki uzogroqda, ichkarida bo'lishi qisman bir-birini to'sib turishi mumkin).

O'quv naturnormlarni bajaraganda drapirovkalardan keng foydalanish kerak. Bunda talabalar matolarning turli burnalari nafisligini o'rganib va ularning tasvirlashini o'rganadilar. Bundan tashqari fonga matolar qo'yish butun kompozitsiyani bitiradi, uni jonlantiradi, yanada mazmunli va ifodali qiladi.

Rel'yeflarni qurish qonuniyatlarini tushunish uchun old tekisligiga e'tibor berish kerak. Rel'yefning butun tasvir go'yoki ko'rimas paralelepipedda joylashgandek. (25-rasm).

U bir tomondan aniq orqa tekislik, fondan tashkil topsa, boshqa tomondan undagi tasvirlarga parallel ravishda oldingi tekislikdan iborat bo'lib, shakllarda bo'rtib turgan eng yuqori nuqtalari mavjud bo'ladi.

Bunday oldinga chiqib, turgan eng baland nuqtalar uchburchak shaklida bo'lib joylashadi va kamida uchta nuqtadan iborat bo'lishi kerak. 25-rasmda bu nuqtalar 1, 2, 3, 4, 5 raqamlari bilan belgilangan. Ular qanchalik ko'p bo'lsa rel'yef shunchalik to'la, yaxlit va xaqoniy chiqadi.

Rel'yefning hajmlari ustida ishlarkansiz, buyumlarining oldingi tekisligidan orqa tekislikkacha kichrayib borishini ko'rsatishingiz kerak. To'g'ri kichraytirish amalga oshira olinasa, rel'yefning silliq nafisligi va yaltirligini saqlab qolindi va dumaloq jisim hajmdorligi hissiyoti yaratiladi.

Naturnorm rel'yefi ushida ishlar ekan ko'pchilik talabalar kompozitsiya va mazmun masalalariga ko'p e'tiborni qaratmaydilar. Agar rangtasvirda bir xil shakllar ranglar jilosi bilan ijroviy hal etsa, haykaltaroshlikda esa naturnormga ko'pincha bir xil shakldagi predmetlarni oladilar. Masalan, ikkita dumaloq, monoxrom bir xil shakllar zeirikari va mazmunsiz bo'ladi. Shuning uchun naturnormni turli mavzu, mazmunda tuzish tavsiya etiladi.

Kompozitsiyaga turli shaklga ega predmetlari kiritilishi mumkin. Uch - to'rtta predmet, naturnorm, mavzu va kompozitsiyasini qiziqarli qilish uchun yetadi.

Bir mavzuni tanlagandan so'ng, oldin homaki rasmda kompozitsiya eskizini chizib olish kerak. Shundan so'ng o'qituvchi bilan maslahatlashib olib mavzu rel'yefini yaratishga kirishish mumkin. Naturnormni eng yaxshisi 30 x 40 sm o'lchamdagi taglik (planshet) tekisligida yasagan hamda rel'yef chuqurligini 3-4 sm qilib olgan ma'qul. Agarda asl nusxaga qarab naturnorm yaratilsa ish ancha foydali va mazmunli bo'ladi. Shakti uzunchoq bo'lgan predmetlarni tasvir tekisligiga parallel joylashtirish kerak.

Naturnorm buyumlarini rel'yef qurish printsipilariga asoslangan ko'rinishlari usullar bilan qurish va ularni umumiy tekislikka keltirish kerak. Naturnormda to'g'ri burchakli va kub shaklidagi predmetlar ishtirok etganda ularni bir oz ichkariga burib, qo'shimcha tekislik va qirralarini ko'rsatish lozim.

Naturnorm rel'yefining hamma qismlari kichraytirib ko'rsatilishi va belgilangan paralelepiped tekisligida sig'dirilishi kerak. (25-rasm).

Naturnormdagi asosiy, markazda turuvchi buyumni yuzada yaxshilab joylashtirish va perspektivada uning asosini aniq ko'rsatish kerak, toki boshqa buyumlar uni berritib qo'ymas. Bu haykaltaroshlikning rel'yeflarga arxitektonika tomondan qo'yadigan talabidir.


Rel'yefni bajarilishida uni turli yoritilishda tekshirib ko'rib tasvirlayotgan predmetlarning aniq shakli va fazoviy hajmi ifoda etilishiga erishish kerak.

Ba'zi talabalar naturnormning hamma qismlariga ko'rkamlik, nafislik kiritish uchun ranglar ishlatishga harakat qiladilar, ammo haykaltaroshlikda ranglardan foydalanishda juda ehtiyot bo'lish kerak. Haykaltaroshlik asosan monoxrom san'at turi hisoblanadi. Ba'zan naturnormning dekorativligini ko'rsatish uchun asosiy fon tekisligini rangli qiladilar, bu esa mazmunga hamda rel'yefni ko'rsatish uchun mos kelishi kerak.

Ishning yakuniy bosqichida buyumlar fakturalari tuzilishini ishlab chiqish, tasvirlanayotgan predmetning materialligini ko'rsatish va ularni badiiy jihatdan jonlantirish muhim rol o'ynaydi. Naturnormni rel'yefda bajarishda quyidagi ketma-ketlik tartibiga rioya qilish kerak:

1. Naturnormning qog'ozga chizilgan eskizini konsultatsiya uchun o'qituvchiga ko'rsatish.
2. Naturnormning maqullangan kompozitsiya variantini o'qituvchi ko'rsatmalari asosida bajarib, haqiqiy kattalikda qog'ozga ishlash.
3. Naturnormning tasviri yakuniy tasdiqlangandan keyin plastilinda rel'yefini bajarish.
4. Naturnormni plastilindan yasash jarayonida maslahat uchun o'qituvchiga ko'rsatiladi.
5. Tayyor ishni baholash uchun ko'rikka taqdim etiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun talabalar uyda ko'plab mustaqil ravishda amaliy ishlar bajarishlari lozim. Shunday ishlardan namuna sifatida 25a-rasmda ko'rsatilgan.



25a-rasm. Naqsmoti relyefi.
Gips naqsh rozetkasini o'ziga qarab relyefini ishlash.
(material: loy, plastilin).

Mashg'ulotning birinchi qismida talabalar odatdagidek gips modelar bilan tanishadilar. Shundan so'ng naqsh namunasi qo'yilmasi taniib olinadi va uning haqiqiy kattaligi o'lchamida ishlashga o'tiladi. Gips rozetka shunday balandlikda turishi kerakki, ufg chizig'i uning qoq o'rtasidan o'tsin. Sizing bajarayotgan vazilangiz ham ana shu balandlikda bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Vazifani talaba tik turgan holda amalga oshiradi. Dastlabki bosqichda rozetkaning balandligini eniga o'lchash va uning qalinliklarini belgilab olishdan iborat bo'ladi. Shuni alohida takidlash joizki, gips naqshni bajariladigan zamin loy bilan bir xil qalinlikda to'ldirilib, shundan so'ng uni silliq qilib tekislanadi.


Bu shuning uchun zarurki, chunki fonda naqsh elementlari qanchalik darajada mohirona tasvirlanmasin uning kompozitsion jozibasi ko'rinmay qoladi.

Balandligi eniga mos ravishda bajarilgan fon yuzasiga o'tkir stek yoki pichoqcha uchi bilan naqsh tasviri aniq tushiriladi. Bunda talaba vertikal, gorizontal va diagonal yordamchi chiziqlardan foydalanishi mumkin. Tasvirni zamin-taxtachaga tushirishda shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, naqsh abrisi (konturi) kompozitsion maqbul joylashishni lozim. Ushbu amal bajarilgandan so'ng vazifaning keyingi bosqichiga o'tiladi. (26-rasm a).

Keyingi bosqichda naqsh abrisi kompozitsion to'g'ri joylashtirilib so'ngira uni yasashga o'tiladi. Birinchi gada naqshning eng yuza qismlari bajarilib shundan so'ng asta-sekin zamandan balandroqdagi bo'laklar ishlanadi. Takidlash joizki,

haykaltaroshlikda ham xuddi rangtasvir yoki qalamtasvirdagidek barcha qismlar bir vaqtda bir-biri bilan qiyoslangan (eni, balandligi, qalinligi v.b) holda amalga oshiriladi. Bu esa o'z navbatida relyef qismlarining nisbatlarini bir-biriga taqqoslab ish yuritish imkonini beradi. Asosiy zaminga ushirligan naqshning chizig'i yo'qolib ketmaydi. (26-rasm b).

Naqshning barcha elementlarining umumiy massasi uch o'lchamda (eni, balandligi, chuqurligi) to'g'ri to'ldirilib bo'lingandan va uning nisbatlari aniqlangandan so'ng, shakllarga ishlov berishga o'tiladi. (26-rasm v). Eslatib o'tamizki, ko'pgina talabalar naqsh elementlarini ishlash jarayonining dastlabki bosqichiga yetarli e'tibor bermaydilar. Agar ushbu bosqich relyef ishlash vazifasining asosiy sarxidan (fondan) farqini tekshirishi kerak bo'lsa, unda haykaltaroshlik uchun ishlatiladigan maxsus sirkul yordamida ishni tekshirib yon tomondan qarab, o'zining bajaragan ishi bilan solishtirishi lozim.




26-rasm.

Ma'lumki haykaltaroshlik dasturida har bir o'quv vazifasi uchun yetarli miqdorda auditoriya soatlari ajratilgan bo'lib, talaba undan maksimal darajada umumiy foydalanishi lozim. Shuning uchun u markur vazifaning bosqichlariga to'liq amal qilgan holda izchillik qoidasiga rioya qilgan ravishda ish yuritishi maqsadga muvofiqdir. Aksariyat hollarda talabalar istining dastlabki bosqichlaridan bir qancha

metodik xatoliklarga yo'l qo'yadilar. Oqibaida ular bir joyda qotib qoladilar. Bu esa ularning o'zlariga bo'lgan ishonch va vaqni bekorga ketishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun talaba auditoriya bilan bir vaqtning o'zida uyda ham ko'plab amaliy mashqlar bajarishi kerak. (27.28.29-rasmlar).

Gips naqsh rozetkasini o'ziga qarab relyefni ishlash mashqini bajaritib, ko'rikdan o'tkazilgandan so'ng, uning faqatgina naqshli relyefigina asta-sekin asosiy zaminidan ajratib tekislab olinadi hamda ushbu zaminiga boshqa naqsh relyefi ishlanishi mumkin. Bu esa talabaning qimmatli vaqtini tejashga imkon beradi.

GIPS MODELGA QARAB, ODAM BOSHI RELYEFINI ISHLASH



27, 28, 29 - rasmlar - O'ziga qarab, gips naqsh rozetkasini o'ziga qarab, odam boshi relyefini ishlash mashqini bajaritib, ko'rikdan o'tkazilgandan so'ng, uning faqatgina naqshli relyefigina asta-sekin asosiy zaminidan ajratib tekislab olinadi hamda ushbu zaminiga boshqa naqsh relyefi ishlanishi mumkin. Bu esa talabaning qimmatli vaqtini tejashga imkon beradi.

Birinchi topshiriqdan farqli ravishda boshni yasashda talabalar dastlabki niqob va bosh surayigini yasash bo'yicha mashg'ulotlarda olgan bilim va ko'nikmalarga tayanib bajaragan bo'lsalar, tekislikda bosh relyefini yasash bilan talabalar endi birinchi marta duch kelmoqdalar. Dasturling bu bo'limiga nazariy va amaliy jihatdan ham katta e'tibor beriladi.

Hajmli haykaltaroshlik va relyef-plastika turlari bo'lib ularning asosida ob'ektni uch o'lchovda tasvirlash yotadi. Dumaloq haykal haqiqiy ko'rinishda ularning balandligi, kengligi va chuqurligini haqiqiy o'lchovlarda ko'rsatishini talab qiladi. Relyefda faqatgina ikkita o'lchov-balandligi va kengligi haqiqiy bo'lib qolaveradi, chuqurlik esa sharti ravishda quriladi va turlicha chegarada olinishi mumkin. Tasvirling chuqurligiga qarab relyef ikki turga ajratiladi: gorelyef va barelyef. Barelyef dumaloq haykalning 1G*3 nisbatlari chuqurligi asosida quriladi, gorelyef esa haqiqiy haykalning 2-3 yoki 3-4 nisbatdagi chuqurligida quriladi.

Haykal tasvirlari relyefda tomoshabin uchun hajmli ko'rinishi va dumaloq shakli hissiy uyg'unlashi kerak. Haykaltaroshlik relyefi hajmli shaklni chuqur o'rganib chiqishi

asosida quriladi. Relyeflar usulida boshni yon tomonidan tasvirlash ancha ko'proq tarqalgan, lekin to'rtidan uch qismlariga burilgan va anfas ko'rinishlari ham tez-tez uchray turadi.

Odam boshi relyefini yasash oldingi qalamtasvir mashg'ulotlardagi boshning hajmini o'rganishda qo'llanilgandek, klassik gips namunalar asosida bajariladi. Bu metodika to'g'ri, chunki ikki topshiriq ham bir modeldan bajarilsa talabalar materialni yaxshi o'zlashtiradilar. Dumaloq haykalda o'rganilgan hajmli shaklni ular yanada yaxshi anglagan holda endi uni relyefda namoyon etadilar.


Ko'pgina holatlarda relyefli tasvirlar arxitektura elementlardan iborat bo'lib, devorlarda joylashtiriladi va u bilan yaxlitlikni tashkil etadi.

O'quv topshiriqlarida relyeflar taxtachalarda amalga oshiriladi. Taxtachalar talabaning ko'zi balandligidagi haykaltaroshlik dastgohida vertikal holatda qo'yiladi. Gips namunasi ham shunday balandlikda qo'yiladi. Boshning tuzilishini aniq kuzatish maqsadida ikki talabaga bitta model beriladi. Talaba modeldan 1,5-2,0 metr masofada turadi.

Bosh relyefini qurish o'quv ishlari asosiy zamin tekislikdan boshlanadi. Taxtagacha 3-4 sm qalinlikda loy qatlami berib chiqiladi va uni tekislab olinadi. Bunday tekislab olingan yuzaga stek yoki pichoq uchi bilan bosh va bo'yining ko'rinishi yengil qilib chizib olinadi. Tasviri taxtachasining yuqori tomoniga yaqinroq joylashtiriladi, yuz tomonida va bosh orqasidagidan ko'proq masofa oraliq olinadi. Shuningdek boshning umumiy hajmi taxtachaning yuzini to'liq boricha to'ldirib turishi kerak. Keyingi bosqichda boshning yuz qismi abrisi aniq qilib chizib olinadi. Unda boshning asosiy nisbatlari, model xarakterini aniqligiga va to'la o'xshashligiga erishish kerak. Relyef bosh hajmlarini chuqurlikda perspektiv qisqartirish printsipi bo'yicha quriladi.

Tadqiqotlardan ma'lumki, hajmlarning chuqurlikka qisqartirib borishi prespektiva qonunlarining asosi bo'lgan - "o'tin kesim" nisbatlari qonuni bo'yicha amalga oshirilishi kerak. "O'tin kesim" qonuni quyidagi nisbatlarda: 3:5, 5:8, 8:13 va hokazolarda belgilanadi.


30.31-rasmlar



Boshni yon tomonidan relyefni tasvirlash vazifasini bajarishda eng avval boshning o'ra holatini aniqlab olish kerak. Agar dunaloq haykaltaroshlikda o'ra chiziq shaklini teng ikki qismga ajratasa (30-rasm) profil relyef tasvirda o'ra chiziq asosiy tekislikka yaqinroq bo'ladi va relyef hajmini 3:5 nisbatida ajratadi (31-rasm).

Boshqacha qilib aytganda, agarda relyef chuqurligini sharti ravishda sakkiz birlik qismi sifatida olsak, unda oldingi ko'rinishdan o'ra tekislikkacha besh birlikni, o'ra tekislikdan asosiy tekislikkacha esa uch birlikni tashkil etadi. Bu vazifani bajarishda relyefni o'ra tekislik (chiziqqa) nisbatan besh birlik qism chuqurligida bajariib, kuzatuvchiga boshning ko'rinish unuvchi qismini aniqlash, relyefning ko'zga ko'rinmas qismi uch birlik dan iborat bo'lib, taxta fonida mavjud bo'ladi.

Amaliy mashqlarda relyef tekisligini asosiy tekislikka parallel ravishda ma'lum qalinlikda loy yotqizib chiqib hosil qilinadi. Bu boshning yon tomonidan ko'rinish siluetini eslatadi. Ana shu ko'rinishda boshning tasviri aniqlanadi, nisbatlari yaxshilab tekshiriladi.



Keyingi bosqichda relyef hajmini loy bilan o'stirib boriladi va kallaning anatomik tuzilishidan kelib chiqib boshning hajmini asosiy sakkiz o'lchovlarini aniqlaymiz, ular asosida relyef quriladi: 1-burun qalinligi, 2-peshona do'ngligi orasidagi masofa, 3-og'iz kengligi, 4-kalla suyagining ko'z kosasi chekkasi nuqtalari orasidagi masofa, 5-pastki jag'lar burchaklari, 6-yanog' suyaklari o'rasi, 7-tepa suyaklari orasi, 8-quloqlar o'rtasidagi masofa. (32 a,b-rasmlar).

Boshni yon tomonidan qaraganda bu hajmlar go'yoki zinapoya kabi turli chuqurlik va do'ngliklardan iborat bo'lib, biz tomonga chiqib kelayotganga o'xshashini ko'rish mumkin. Bu esa boshning anatomik tuzilishi va konstruksiyalaridir.

Vazifani yaxshi tayyorlangan, qo'l bilan yumshatilgan, toza loy bilan amalga oshirish kerak. Ishni o'ylab, ma'lum tartibda, olib borish va loyni bekordan bekorga suratvermaslik, ortiqcha shakllar paydo qilmay olib borish kerak.

Loydan yasash uzor ko'rinishdan boshlanadi. Eng avval burun kattaligi yasaladi. Ikkinchi planda asosiy tekislikka perpendikulyar qilib peshona do'ngliklari joylashishi bajariladi.

Keyingi bosqichda ko'z kosasi chuqurligi shakllantiriladi. Taxminan ana shu balandlikda yuqori va pastki jag'lar birlashgan qismi joylashadi. So'ngra chakka suyaklari, pastki jag'ning ifodasi, yanog'lar, chakka suyaklari quloqlar yasab boriladi. Shaki bo'laklarining nisbatlari boshning anatomik tuzilishdan kelib chiqib, uning haqiqiy asl ko'rinishiga teng qilib olinadi. Relyef ishlashda bir ko'rinish ikkinchisiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Bunday ketma-ketlikda ismni qismlarga ajratib bajarish bo'laklarni alohida qurish degani emas. Tasviriy san'atning klassik ish uslublari-umumiydan xususiyga va xususiydan yana umumiyga - qoidasi haykaltaroshlikning bosh relyefini bajarishning ham doimiy sharti bo'lib qolaveradi. Vazifani bajarishda ko'zni shunday o'rnatish kerakki, bir vaqtning o'zida ham umumiy, ham xususiy ko'ra olib, ularni bir biriga bog'lash kerak.

Relyef perspektiva qonunlari asosida, boshning o'ra tekisligini hisobga olgan holda ketma-ketlik tartib bilan yasaladi.

Ba'zi bir o'lchovlar va nisbatlarni aniqlash uchun sirkul ishlatish mumkin, lekin hamma vaqt ham undan foydalanavermish mumkin emas. Ko'zning, sezish qobiliyatini rivojlantirish va ularga ko'proq ishonish kerak. Bu borada o'ra asr rassomi va tasviriy san'at sohasidagi nazariyotchisi L.Sandral shunday degan edi: «Shuni doim yodda tutish lozimki, keragidan ortiq o'lchab tasvirlash rassonga foydadan ko'ra ko'proq zarar keltirishi mumkin. Ko'z bilan chanalab chizish va shu asosda ko'plab mashqlar bajarishi uning muvaffaqiyatini belgilaydi.»

Boshning yon tomonidan relyefni bajarilganda har doim uni haqiqiy namnunaning oldidan, yonidan, pastidan qarab solishtirib borish kerak.

Boshni turli yorug'liklarda yasash kerak, buning uchun dastgochini turli holatlarga burib yorug'lik tushish yo'nalishini o'zgartirish bu hatolarni o'z vaqtida aniqlashga va ularni tuzatishga yordam beradi.

Talabalar ishlarni ko'rib tahlil qilib chiqish natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'pincha ular bir xil xatolarga yo'l qo'yadilar. Ba'zan talaba ishga berilib kyetib yon tomonidan ishlayotgani esidan chiqib boshqa holatdan modelga qaray boshlaydi va shunda ba'zi tasvirlar to'rtan uch qismli raqib oladi.

Relyefni yon tomondan kuzatib tekshirganda ko'pincha burun ko'z kosasi tashqi aylanasidan kengroq, og'iz esa burundan kichikligi aniqlanadi, quloqlarning eshitish tashkili haddan tashqari chuqur, uning chanog'i esa haqiqiy hajmda tasvirlanadi.


Yon tomondan tasvirlashdan farqli ravishda to'rtan uch holatda boshni tasvirlashda bosh tekisligi asosiy tekislikka parallel emas, balki unga nisbatan biroz

burchak ostida bo'lad.

Bosh relyefini to'rtidan uch qism holatda bajarish bosqichlari ketma-ketligi tartibini ko'rib chiqamiz. (33-rasm a,b,c,d).

Loy yopishtirib chiqilgan fon tekisligida bosh surati chizib olingandan keyin, uning old tomoni peshona-yuz tomonini va boshning yon tomonini ajratib turuvchi chegarani aniqlab olish kerak. (33-rasm a). U chekka qismidan o'tib borti, ko'z kosasi tashqi qirrasiga o'tadi va yanog' chetidan, yuqori jag' suyagining uchi hamda dahan do'ngligiga tushadi. Shundan keyin relyef chuqurligi va boshning yuz va orqa tomonini chegara chizig'idan kelib chiqib relyefni qurishga kirishish mumkin. Boshning yuz tomonida ko'zlar joylashadigan tekislikni aniqlab chiqamiz va relyefning o'rtasidagi tekislikni mos keluvchi, chuqurlikni 3:5 nisbatga bo'luvchi simmetriya o'rtasidagi o'tkazamiz.

Relyef bajarish keyingi bosqichlari (33-b,c,d) rasmda ko'rsatilgan. Bunda o'rtasidagi bosh piramidasi, og'iz, dahan quriladi, ko'z kosasi ko'rsatiladi, yanog' suyaklari, pastki jag' yasaliadi. Shundan keyin relyef chuqurligi hajmi perspektiv qisqarishini hisobga olingan holda ish davom ettirilib, ishlab chiqishga kirishiladi. To'rtidan uch ko'rinishda relyef ishlarida bosh shaklini asosiy tekislikka parallel qilib foydalanmaslikka harakat qilish kerak, chunki bu relyef ko'rinishini buzadi. Aytib o'tilgan ketma-ketlik tartibida ish olib borish har qanday chuqurlikdagi relyefni bajarish imkonini yaratadi (eng past barelyefdan tortib, to baland gorelyefgacha). Ammo shuni esda saqlash kerakki, relyef chuqurligi ortib borgan sari o'rtasidagi tekislik asosiy fon tekisligidan uzoqlashib boradi.



33- a,b,c,d rasmlar.

Shu sababli esa o'rtasidagi tekislik bilan asosiy fon tekisligi orasida joylashgan bosh hajmini konstruktiv ishlab chiqish zarurligi ko'proq bo'ladi. Bu shuning uchun kerakki, relyefni tomoshabin yon tomonidan ham kuzatishi mumkin.

GIPS MODELARDAN ODAM BOSHINI ISHLASH

Haykataroshlik bo'yicha asosiy mavzu - odam bosh haykalini yasash mavzusi bir vaqtning o'zida qalamtasvir kursida ham o'rganiladi, bu esa o'quv jarayonini samarali bo'lishiga yordam beradi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki inson boshi haykalini yasash rasm chizishda katta yordam beradi, chunki haykataroshlikda talabalar hajmi shakllar qurish tartiblarini kuzatishlari osonroq. Bu jarayonda, ular boshning konstruktiv xususiyatlari va plastik tuzilishlarini tushunib oladilar. Shuni aytib o'tish kerakki odam boshi haykalini ifoda etish tasviriy san'atning hamma turilarida ham o'quv dasturining eng qiyin bo'limidir.

Odam boshini haykataroshlikda o'rganish tayyor namunalardan nusxa olishdan boshlanadi. Eng ko'p tarqalgan namuna qadimgi Yunon va Rim portret san'ati modellari hisoblanadi. Nusxa olish qisqa vaqtida nafaqat haykal ishlash texnologiyasini o'zlashtirish, balki haykataroshlik san'atini tushunib olishga imkon beradi.

Mashg'ulotlar davomida talabalar gips model atrofida bir-biriga xalaqit bermaydigan va yaxshi ko'rindigan masofada joylashishlari kerak. Talabalar topshiriq bajarish tartibini yaxshi o'zlashtirib olsalar, keyinchalik tirik modelni ishlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Birmunchi topshiriq boshini bo'yin bilan old tomonidan ko'rinishini yasash 32a-rasm.

Boshning o'ltirish haqidagi kattaligida olinadi. Model xarakterini yetkazib berishga eng avval to'g'ri olingan nisbatlar bilan erishiladi. Dastlab, bosh umumiy ko'rinishida yaxlit yasaliadi. Ishni zarur o'ltirishlar sinchini qurishdan boshlanadi. Sinch ustuni atrofida loydan bo'yin aylantiriladi, uning ustida esa bosh shaklining luxumsimon ko'rinishi quriladi. Boshning konstruktiviyasini hisobga olib bo'yin, yuz qismi va orqa miya asosiy konstruktiv ko'rinishlarni aniqlash va model xarakterini yetkazib berish kerak, ya'ni asosiy konstruktiv ko'rinishlarni aniqlash va model xarakterini yetkazib berish kerak, ya'ni asosiy konstruktiv ko'rinishlarni aniqlash va model xarakterini yetkazib berish kerak. Yuz burchagi aniqlanadi, ya'ni qoshlar ushi yoylari burunning yuqori nuqtasiga o'tkazilgan to'g'ri chiziq va shu nuqtadan quloq past uchidan o'tkazilgan gorizontal chiziqlar tashkil etgan burchak. Yuz burchagi, kalla suyagi va yuz qismining o'zaro holatlarini aniqlaydi. Yuz qismi oldinga chiqqan, ichkariga kirgan, yoki bir chiziqda yotgan bo'lishi mumkin, shunga qarab, insonning turi xil xarakterli o'tkir, o'timas va to'g'ri yuz burchaklarini bilish mumkin.

Ish davomida yuzning qismlari va kalla suyagi shaklini aniq bilib olish zarur. Shundaygina ko'z, burun, og'iz, quloq va ularning o'zaro joylashishlari hamda nisbat namunalarning xarakteri haqida yaqqol tasavvurga ega bo'lish mumkin. Bosh qismlari konstruktiv o'zaro bog'liqliklari asosida, yaxlit bir hajm xarakterini saqlab qurish kerak bo'ladi. Ishni bajarishda doimo boshning o'rtasidan kesib o'tuvchi simmetrik chiziqni kuzatib borish kerak.

Bundan tashqari ishni boshlashda frontal o'q chizig'ini ham aniqlab olish lozim. Bu chiziqda quloq chuqurliklari, teshigi, belgilanadi, pastki jag' uchlari birlashadi.

ODAM BOSHI ETYUDINI ISHLASH

Haykaltaroshlik bo'yicha o'quv mashg'ulotlari dasturida odam boshi etyudini bajarish ko'zda tutilgan. Bunga qadar 1-va 2-kurs talabalari boshning gips namunalari, plastik anatomiya kursi bo'yicha esa boshning kalla suyagi va muskullarini yasaganlar.

Gipsli namunalarda nusxa yaratishda talabalar boshning tayyor, harakatsiz shakllarini ko'rib ishlaganlar. Klassik haykallar juda ko'p ijodiy materiallarga boy bo'lib, bu namunalardan nusxa olishda talabalar nafaqat amaliy ko'nikmalar o'zlashtiradilar, balki inson boshini fazoviy hajmini tasvirlash qonuniyatlari bilan ham tanishib boradilar. Ammo nusxa olish ko'proq darajada mexanik xususiyatda bo'ladi. Ishga qiziqib berilganda talabalar pedagog rahbarligida deyarli bir xil natijalarga erishadilar. Odam tirik boshining nusxasini naturaga qarab, yaratish o'quv jarayonining ancha qiyin bosqichidir. Tirik modeldan etyud yasash to'laigicha ijodiy jarayon hisoblanadi.

Ko'p jihatdan bunda talabaning individualligi, konstruksiya va haykaltaroshlik tilining o'ziga xosligini anglab yetishi bilan aniqlanadi.

Tirik model ustida ishlash ijodiy jarayon ekanligini bir modeldan bir necha haykaltarosh-mutahassislarning bajaragan asarlari yaqqol ko'rsatib beradi, ular bir-biridan umuman farq qiladi.


Har bir etyudda rassomning o'z individualligi, shaklini ko'rish va tushunishi, konstruksiyani qay darajada tuzishi ko'rinib turadi. O'xshashliklari masalasini har biri o'zicha hal qiladi: bir rassom o'xshashlikni tashqi ko'rinishini berilib ko'rsatishga harakat qilsa, boshqarai uning psixologik holatini chuqurroq aks ettiradilar, uchinchi esa modelning konstruktiv xarakteristikalariga e'tiborni qaratadilar. Bir ijodkor keng, umumiy tasvirlashga harakat qilsa, boshqasi badiiy mazmunga erishish uchun shaklini batafsil ishlab chiqish va noziklik nafslikka erishishga harakat qiladi. Ammo ularning hammasi ham yaxshi natijalarga erishadilar. Har bir ijodkor o'zining uslubini va anglashi bilan ajralib turadi.

Birinchi bor bosh etyudini yasashga kiritishgan talaba ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi. Tirik model harakatlanishidan tashqari emosional va psixologik qiyinchiliklar ham tug'diradi. Inson fe'li, yuz ifodasi, tirik shaklning ta'siri shunchalik kuchlikli, talaba ularga berilib kelib o'xshatishga harakat qiladi, shu bilan birga boshning tuzilishi, anatomiyasi nisbatlari haqida esidan chiqarib qo'yadi. Bosh etyudi haykalini yaratish gips namunasidan bajarilsa ham, tirik odam boshiga qarab yasalsa ham ish tartibi bir xil qoladi. Badiiy-grafika fakulteti talabalariga yuklanadigan vazifa va dastur talablariga binoan tirik odam bosh haykali etyudini yaratish jarayonining ba'zi bir tomonlarini ko'rib chiqamiz.

Ish asos yasashdan boshlanadi. Etyudning kattaligi va kompozitsiyasiga qarab asoslar turlicha bo'ladi. 34, 35-rasmda boshni * bo'yin bilan va yelka, kengligi bilan yasash uchun karkaslar ko'rsatilgan. Karkas balandlikdagi metall tayogcha bo'lib, uning uchida simlarga loyini ushlab qolish uchun yog'och bo'lakchalari «Q» shaklida mahkamlangan. Byuslarni yasashda yelka, kengligi uchun qo'shimcha tayog mahkamlanadi. Ba'zan karkas yog'ochdan ham bo'lishi mumkin.

Huddi ranglashtir, qalamtasvir mashg'ulotlari kabi 16-18 kishidan iborat talabalar

guruhiga ikkita model, taklif etiladi. Namuna sifatida yoshi kattaroq, yuzi aniq ifodali va kalla suyagi tuzilishi yaqqol ko'ringan bo'lsin. Har bir talaba namunani yaqqol ko'ra olishi uchun kerakli masofada to'g'ri joylashib olishlari kerak.




34-rasm.

35-rasm.

O'quv dasturiga ajratilgan vaqt davomida talabalar ikkitadan etyud yasashi kerak: asosiy etyud 12 soat davomida va boshqa modeldan qisqa vaqtligini 4 soatda bajaradilar. Turli modellardan etyud yaratish alohida odamlar tuzilish shakllari va xarakterini chuqurroq o'rganib olishga yordam beradi. Vazifani osonlashtirish uchun haykalni haqiqiy kattalikda, to'g'ri qaragan vaziyatda yasash tavsiya etiladi.

Ishni boshlashdan avval hamma narsani tayyorlab olish, ish sharoitini yaratish kerak. Ko'pincha talabalar karkasga loyini tartibsiz, to'g'ri kelganча yopishtirib tashlaydilar, shundan so'ng karkasni ham, modelni ham ilg'ab bo'lmaydi. Bu



noto'g'ri, loyini qo'lga olishdan oldin naturaning xarakteri haqida aniq tasavvurga ega bo'lish, uni diqqat bilan o'rganib chiqish, turlicha yorug'likda har tomondan kuzatish kerak. Boshning turini aniqlab olish zarur. Old tomondan qaraganda boshning to'rtta asosiy shakli bo'ladi. 36-rasm.

To'g'ri to'rtburchak shaklida, chakka, yuqori va pastki jag'lar chakka nuqtalari aytaylik bir vertikal, to'g'ri chiziqda joylashgan. Qiyshiq to'rtburchak shaklida. Uchi pasga yo'nalgan konussimon. Uchi yuqoriga yo'nalgan konussimon.

Shundan so'ng yuzning burchagi aniqlanadi. Uchi ikki kesishuvchi tekislik bilan olinadi: biri qoshi ustidan do'nglik va burunning jag' bilan birlashgan nuqtalaridan to'g'ri chiziq o'tqazib, ikkinchisi esa burunning pastki nuqtasi va quloq uchidan o'tqaziladi.

Shuningdek uning burchagi bosh miya va yuz qismlari o'zaro joylashishlari bilan aniqlanadi. Yuz qismi ichkariga kirgan, tashqariga turtib chiqqan bo'lishi mumkin. Yuzning burchagi to'g'ri, o'tkir va o'tmas bo'lishi mumkin. 37-rasm.


Namunani boshqa tomondan ham o'rganib chiqish kerak. Aynan ana shu individga xosliklarni ko'rib olish, boshning alohida qismlari ichki nisbatlarini aniqlab olish kerak. (Yoshi, soch tuzilishi va boshq.)

37-rasm. Yuz burchaklari (a-to'g'ri, b-o'tkir, v-1 o'tmas).

Modelni o'rganish uchun bir mashg'ulot o'rib ketishi mumkin. Bu vaqtni bekorga ketgan deb hisoblash kerak emas: faqatgina jiddiy o'yab va anglab yetib boshlangan ishga yaxshi natija beradi.

Boshni bo'yin bilan yasashda ish plintdan boshlanadi. U har qanday haykal uchun asos, uning tagi hisoblanadi. Boshni haqiqiy kataligida yasash uchun plintni 15x15 sm va 2-3 sm qalinlikda olish mumkin.

Karkasning ustuni atrofiga bo'yin qalinligida loy yopishtirib chiqiladi. Bunda ustun o'rtada turishi kerak va keyingi ishlarni bajarayotganda tashqariga chiqib qolmasligi kerak. Loy qalamni ustun ichki qismini kamida ikki santimetr qoplab turishi lozim. Bo'yining loyi asosida tuxumsimon shaklda bosh yasaliib, uning yuzi va orqa



tomonlari shakllantiriladi. Yuz tomoni plintning old tomon tekisligiga to'g'ri olinadi. Bu bosqich boshning umumiy hajmini yaratish bosqichidir.

Tajribali haykaltaroshlar haqiqiy kattalikdagi portret ustida ishlaganlarida havo va fazoni ham hisobga olib uni bir oz kattaroq yasaydilar, ya'ni asl kattaligidan 1,25 miqdorda. Shunda uni 3-4 metr masofadan kuzatganda haykal asl kattaligida yasalgandek taassurot uyg'otadi.

Boshni yasash boshlanganda bo'yin uzunligi yuz uzunligi bilan bir xilda bo'ladi, ya'ni dahandan burun boshlanish yuqori nuqtasigacha masofa olinib bu butun boshning balandligi yarmini tashkil etadi.

Ishning keyingi bosqichi boshning taxminiy geometrik shaklini yaratishdir, ya'ni asosiy ko'rinishlari va nisbatlarini, shuningdek model xususiyatlarini ko'rsatuvchi boshning taxminiy shakli yasaladi. Bu bosqichni shaklning ko'rinishini hosil qilish deb atash mumkin. Vazifani talaba qanchalik yaxshi bajara olsa, ishning haqoniy chiqishiga asos solingan bo'ladi. Shaklini hosil qilishda talabadan boshning tuzilishini hisobga olishganini taqazo etadi. Bu bosqichning qiyin tomoni shundan iboratki, ilgari o'rganilgan yuzning o'n to'rt ko'rinishi bilan boshni kesib ko'rsatilishi bo'limlari bilimlariga tayanib talabaning ish yuritishidir. Turli modellarda faqatgina ko'rinishlar shakllarigina o'zgaradi, lekin ularning

chegaralari va soni o'zgarmaydi. Ko'rinishlar «haqoniy» bo'lishi kerak, ya'ni ma'lum nisbatlarda va o'zaro bog'liqlikda. Masalan, peshona o'rasi ko'rinishini olib qaraymiz. Peshona do'ngligi keng joylashgan odamda u keng bo'ladi. Chuqur kirib boruvchi ko'z ko'rinishlari ko'zning chuqur joylashganini bildiradi, kerakli ko'rinishlardan bo'lgan burun balandligi va kengligini, yonog suyaklari chuqurligi aniqlab olinadi.

Ishlarni ilgari aniqlab olingan bosh qismlarining konstruktiv bog'liqliklari asosida, turli xususiyatlariga, yuz burchagi quloqlar joylashishiga qarab olib boriladi. Jag' aylanasi xususiyatini etiborga olib ish davom ettiriladi. Soch tuzilishi ham sxematik yasaladi.



Fazoviy-hajimli ko'rinishini yaratayotib boshning alohida qismlari, nisbatlarini ham esda tutish kerak. Haykaltaroshlikda hajm va og'irlik, nisbatlar asosiy tushunchalardir, ular bir-birini to'ldirib boradi va haykaltaroshga plastik tuzilishi va boshning arxitektonikasiga chuqurroq kirib borishga yordam beradi. Modelning o'ziga xoslik xususiyatlarini saqlab qolishga eng avval ushbu namunaga xos bo'lgan boshning to'g'ri olingan nisbatlari (va nisbatlari) bilan erishiladi. To'g'ri ishlangan ko'rinishlar va hajmlarning o'zidaroq o'xshashlik belgilari bilan modelning plastik xarakteristikalari paydo bo'ladi. Bizga ma'lumki, uzoq masofadan yuzini yaxshi ajratib ko'ra olmay turib ham umumiy ko'rinishdan bizga ma'lum odamni tanib olamiz. Haykal ishlashda ham to'g'ri toptilgan bo'laklar asosida modelning inson boshini yasash ishlari tartibli loyini natija, maqsadsiz bir yeridan ikkinchi joyga yopishtiraverish, uning tuzilishini hadde o'zgartiravermay talabadan fikrlab ishlashni talab etadi. Bu esa keyingi murakkabroq ishlarni bajarishda yordam beradi, vaqtini tejaydi.

Boshning geometrik ko'rinishini ko'rib bo'lgach keyingi bosqichga: plastik anatomiyaga asoslangan holda bosh suyagini aniqlashga o'tish mumkin.

Inson boshini umumiy shaklini kuzatib biz unda suyak tuzilishi va yuqqa

qoplanmini ko'ramiz. Yuzning yumshoq qoplamida yoshi o'tishi bilan turli o'zgarishlar bo'ladi, boshning kalla qismi esa, o'z ko'rinishini bir oz o'zgaritisa ham bosh shaklini tashkil etuvchi asos, qat'iy konstruktiviyatiga qo'ladir. Boshning suyak asosi muskullar va teri-yog' qoplarni qalinligiga qarab turli qismlarida har-xil darajada ko'rinish, sezilib turadi.

38-rasmda boshning yuz qismini suyaklarining chiqib turgan do'ng joylar sxemasi ko'rsatilgan. Bosh suyakning hamma qismlari asosan juft va ularni iloji boricha bir vaqtda yasash kerak. Shuningdek ularni boshning o'rtacha chizig'i, simmetrik o'qini saqlash kerak.



38-rasm. Bosh suyakidagi bo'rtib turgan nuqtalar.

Kesib ishlash usuli bilan boshning asosiy ko'rinishi shaklini ko'rib olib, keyin kalla suyagi tuzilishi va xarakterini aniqlab bo'lib boshning yumshoq qoplamlarini yasashga o'tish mumkin. Shu yerda aytib o'tish kerakki bosh namunasining suyak asosi teri qoplamlarini hisobga olib modeldashirish amalga oshirilib bo'lingan.

Keyingi ishlarning qiyinchiligi shundan iboratki, yuzning mimika va boshqa ifoda etish muskullari juda ham ko'p harakatchanligi sababli insonning psixologik holatiga qarab boshning yumshoq qoplarni har daqiqada sayin o'zgarib turadi.

Ko'pgina yuzlarning simmetriyasi buziladi, lekin simmetriya ham ummalik ko'p bo'lmaydi va boshni qurish unga ko'p ham bog'liq bo'lmaydi. Boshning hajmini juft bo'lgan do'nglik va ichkariga cho'kkan yuzaliklar tashkil yetib ularni haykaldan ko'rsatib berish muhimdir.

O'quv etyudining ijodiydan farqli tomoni shundaki, bunda namunaning psixologik xususiyatlarini ochib berish maqsad qilib olinmaydi. Bu yetuk mutaxassisning vazifasi. Talabalar boshning umumiy ko'rinishi, o'rtiqcha mayda detallarsiz ko'rinishda yasash talab etiladi. Ammo bu vazifani soddalashtirish deganini

anglatmaydi. Umumlashirish katta konstruktiv shakllarni, ularni bir-biriga bog'lab ishlashni ko'zda tutadi. Bunda uning bo'laklarini ko'rsatishga harakat qilish shart emas.

Inson boshi individual farq qilishiga qaramay umumiy anatomik tuzilishga ega. Boshning anatomiyasini talabalar 2-kursda batafsil o'rgananganlar. Bu anatomik bilimlarni talabalar endi bosh etyudini qurishda qo'llashlari kerak. Ishni bir vaqtda ikki yo'nalishda olib borishga to'g'ri keladi: bir tomondan boshning butun tuzilishi yaxlitligi fazoviy hajmini va uning plastik tuzilishini aniqlab borish, ikkinchi tomondan-anatomik bilimlar asosida modelning ichiga chuqur kirib, shaklini plastik va funksional mazmun bilan to'ldirish, muskullar va teri-yog' qoplarni aniqlab borish. Bu ikki vazifa bir-biriga bog'lanadi va namundan to'g'ri ish olib borish hamda anglab yetishga bu katta yordam beradi.

Bosh suyakini qay bir darajada qoplab turgan va uni shaklini takrorlovchi teri-mimika muskullari bilan bir qatorda jag' va chakka muskullarini alohida aytib o'tish zarur. Ular yuzning plastikasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek yuzning individualligi ko'z, burun, lablar, bo'yin shakllari bilan ham belgilanadi, ular boshning badiiy-anatomik elementlariga taalluqlidir.

Bosh etyudi namunasini qurishda uning bo'laklarini alohida emas yaxlit qismlar sifatida tasvirlashga to'g'ri keladi. Bu elementlar hamma odamlarda ham bir xil anatomik tuzilishda bo'lsa ham, ammo ularning shakli har xil bo'ladi, shuning uchun ularni haykaldan batafsil ko'rsatishga to'g'ri keladi. Ular quyidagilardan iborat:

Burun yuzning eng ifodalay qismidir. Uning shakli hamma odamda turlicha. U uchburchak piramidadan tashkil topib, uning pastki qismini burun qanoqlari va katalari tashkil etadi, yuqori qismi esa burun-peshona chuqurligi bilan to'g'ri keladi.

Burun shakli suyak asosiy yuqori qismi, pastda esa-bir guruh burun kemirchaklari bilan belgilanadi.

Burun shaklining to'g'ridan va yonidan nisbatlari va asosiy ko'rinishlarini aniqlab olingandan keyin, yuzning o'rtacha chizig'idan boshni pasdan kuzatib burunning pastki uch qismi shakli tasvirlanadi. Bu esa burun qanoqlarini burun katalari shakli va ko'rinishini to'g'ri aniqlash imkonini beradi. Bu ko'rinishlar burunning xususiyatlarini ko'rsatib berishi kerak (qirra burun, puchuk burun va shu kabilar).

Birinchi bosqichda burunning katalarini to'la ko'rsatish kerak emas. Ko'pincha talabalar boshni umumiy ko'rinishda bajargan bo'lib, burunni esa oxiriga etkazib bo'ladi. Bu esa metodik jihatdan noto'g'ri.

Boshni yon tomondan kuzatilganda burunning yuqori jag'dan chiqib turishi kataligiga va qanoqlariga hamda bu kataliklarning bir-biriga nisbatlariga e'tiborni qaratish kerak.

Yon tomondan qaraganda burunning xususiyatlari ham yaxshi ko'rinadi, (burun, peshona chuqurligi). Erkaklarda u ancha aniqroq bo'ladi, ayollarda ko'pincha tekisroq bo'ladi. Burunning uchi ham turlicha bo'ladi, shuning uchun aylana radiusini aniqlash kerak bo'ladi.

Burunning tuzilishini yanada aniqlab borib, uning shakllarini ifoda etish uchun turli vositalar izlash kerak: u aniq, qirralari bilan tasvirlanadi, to'g'ri bo'lg'in qatlamlari esa-ancha tekis va yumshoq. Burunni yasashda boshqa anatomik plastik ko'rinishlari, ularning modellari o'ziga xosligini ifoda yetib borish kerak.

Ko'zni tasvirlashga o'tishda u talaba uchun juda ham qiyin masala ekanini aytib o'tish kerak.

Boshning birinchi o'quv etoyudini bajarishda faqatgina ko'zning tuzilishi shakli konstruktiv xususiyatlarini ko'rsatib berishga intilish kerak. Ko'zni tasvirlab berishda yana bir qiyinchilik shundan iboratki, ular juft shakl bo'lib birgalikda harakatlantiruvchi. Shuning uchun faqatgina hajmi va anatomik masallardan tashqari talaba simmetriya va hajm masalalarini ham yechishga to'g'ri keladi.

Ko'zning shar shakli bosh suyagining ko'zlar kosasida joylashadi. Diqqat bilan qaraganda ko'z kosasi suyaklari har bir odamda aniq ko'rinadi: oriqlar odamda ancha aniqroq, tola odamda ko'z kosasi suyaklari pastki qismi aylana muskullari ancha bo'rtganidir. Ilgari aytib o'tilganidek, turli chuqurliklar shakli va kataligini aniqlashga katta e'tibor berish kerak.

Ko'z kosasining qirralari ko'zni qurish uchun asos hisoblanadi. O'zining yarim shari bilan ko'z olmasi ko'z kosasidan o'ziga tashqariga chiqib turadi, bu esa boshni qimirlatilmay turib 180° ni ko'rishga imkon beradi.

Ko'z uski tomonida uni himoyalovchi, mustahkam, ko'z kosasining soyaboni bo'lgan, peshona suyagining qirrasini chiqib turadi.

Ko'zning baland pastga qimirlashi unga ulangan, ko'zning aylana muskullari deb ataluvchi muskullar bilan amalga oshiriladi.

Ko'z yuqoridan va pastidan ko'z qovoqlari bilan berkitiladi, ular ko'zning aylana muskullarining ancha qattiq qismi hisoblanadi. Yuqori va pastki qovoqlar ko'z yoshi chiqarish chuqurchalaridan boshlanib ko'zning tashqi chekkasida birlashadi. Tashqi burchaklari har doim ichki yosh chiqarish burchaklaridan balandda va uzoqda joylashadi. Ko'zni qurishni boshlaganda eng avval ko'z kosasida ko'z olmasini joylashtirish kerak, uning haqiqiy kataligi taxminan 2 sm. ni tashkil etadi. Ko'zning olmasini chiqib turishini to'g'ri ko'rsatish uchun unga yonidan va pastdan qarash kerak bo'ladi. Ikkinchi ko'zni ham xuddi shunday o'rganiladi, chunki ularning bir xilligini ta'minlash kerak. Ko'zning yosh chiqarish chuqurchalari o'rtasidan masofani aniqlab olib va uning bosh suyagi boshqa qismlariga nisbatan chuqurligini belgilab qovoqlarini yasashga kirishish mumkin. Oldin yuqoridagisi keyin esa pastdagi shakllantiriladi. Yuqori qovoqlar o'rtasi chetidan ko'ra kengroq. Ko'zning tashqi aylanasida qovoqlar pastkisidan uzunroq va uni yopib turadi.

Ko'z qorachig'i ko'z olmasining markazida joylashadi va eng tashqariga chiqib turgan nuqtasi hisoblanadi.

Boshning birinchi etyudida asosiy e'tiborni faqatgina halkalaroshlik masalalariga qaratib, badiiy uslubdan farqli ravishda ko'z qorachig'ini ifodalashda ko'zning shar ko'rinishidagi hajmi shakl bilan yaxlitligini hal etamiz.

Ko'z qovoqlari va ko'z olmasi harakatlari yordamida ko'zning aylana muskullari insonning turli psixologik holatini ifoda yetib beradi. Yuqori qovoqlar ishlatish va harakatlari uning plastikasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ko'z ochiq holatda turganda yuqori qovoqlar taxlanadi va peshona suyagi tagiga kirib ketadi, bu esa rassonga yuqori qovoqlar pastkisiga nisbatan ancha baland-pastliklari bilan tasvirlashga asos bo'ladi.

Agarda uning cheti kipiqlar bilan qoplanganligini hisobga olsak, unda yuqori qovoqlarning plastikasini kuchaytiribrog berilishi zarurligini tushunamiz. Bunday

qovoqlarning ko'z olmasiga tushadigan soyasi ko'zni yanada yorqin va jonli ko'rsatadi. Pastki qovoqlar qalinligini tasvirlashga diqqat bilan qarash kerak, u yuqoridan yoritilganligi uchun yarim aylana bo'lib, yaxshi ko'rinadi.

Og'izning shakli yuqori va pastki jag'lar, yuqori va pastki qator tishlar bilan belgilanadi. Jag'lar ham pastki va yuqori lablar bilan qoplanadi, uning asosida og'iz muskullari joylashgan. U og'izni o'rab turadi va lablarga shakl beradi. Lablarning shakli va tuzilishi bevosita tishlar shakli bilan bog'liq bo'ladi. Yuqori tishlar bilan pastkilar birlashishiga qarab yuqori lab ko'pchilik odamlarda uzunroq bo'ladi va pastkisidan ko'proq oldinga chiqib turadi. Terining shilliq pardasiga o'tish joyi lablarning qizil hoshiyasini tashkil etadi. Uning baland, keng va qalinligiga qarab lablar ingichka, o'rta, to'la va shishtigan bo'ladi.

Ularining muskul asoslari bo'lmaydi, katta elastikligi bilan ajralib turadi va turli holatlarga keltiriladi. Yuqori lablarning plastikasini uchta do'ngliklar belgilaydi: markaziy va ikki yon tomonidagi do'ngliklar, ular og'iz chetki burchaklarida ichkariga qayrilganidek bo'ladi. Yuqori lab teri yuzasida do'nglikdan burunga qarab kichik chuqurga boradi, u lab filtri deb ataladi. Yuqori lab yoylarda og'izning aylana muskullari burun qanotlaridan og'iz burchaklariga tushuvchi burun-lab burmalarini tashkil etadi. Ular yuzining plastikasida katta rol o'ynaydi va portretlar o'xshashligida juda muhimdir. Bolalar va yoshlarda burun-lab burmalari bo'sh ifoda etiladi, yosh o'tishi bilan ularning aniqligi oshib boradi, pastki lab o'rtasidan kichik bir chuqurcha bilan ajratilgan ikkita do'nglikka ega.

Yuqori va pastki lablarning do'ngliklari uchrashib, og'izning yopilish to'liqlisimon chizig'ini hosil qiladi. Og'iz plastikasini ko'rsatish, og'iz burchaklarini aniqlash ham juda muhimdir.

Quloqlar qattiq to'qimali bo'lg'indan tashkil topib murakkab elipsoid ko'rinishdagi chig'anoqni tashkil etadi. Quloqlarning shakli juda individual bo'ladi va ko'p jihatdan yuzning umumiy xususiyatiga ta'sir qiladi. Odamda quloqlarning yuqori chegaralari qoshlar balandligida, pastki uchi esa burun uchi balandligiga to'g'ri keladi: quloqlarning qiyaligi burun qiyaligiga mos qilib quriadi. Quloqlar chanoqini qurish asosi bo'lib katta suyagining chakka qismidan tashqi eshitish tuyug'i hisoblanadi.

Quloqlar chanoqining anatomik qurilishi juda murakkab. Quloqlarning kichik hajmi tuzilishi o'z ichiga o'ziga anatomik temini oladi. Quloqlar yasash katta diqqat e'tiborni talab etadi. Ko'pchilik talabalar quloqlar bevosita kallaga yopishtirib qo'yadilar. Quloqlarning to'g'ri tuzilishi va konstruktiviyasini qurish uchun uni ko'rinishini nafaqat yonidan va oldidan balki orqadan ham o'rganib chiqib chanoqining hajmini, kalladan ajratib ko'rsatib berish kerak.

Sochlarni yasash individual xususiyatlarini hisobga olib umumiy ko'rinishda bajariladi. Sochlarni kallani qoplab turadi va uning xarakteri va turishiga qarab bir shaklini ifoda etadi.

Talaba sochlarning asosiy yo'nalishlarini aniqlab olishi zarur. Peshona uski suyagida sochlarni orqaga yo'naladi, tepasida orqaga va bir oz pastga, chakka qismida esa bir oz orqaga va ko'proq pastga yo'naladi. Yuzni sochlarni bilan qoplab turish chizig'i erkaklarda ayollardagidan bir oz farq qiladi. Erkaklarda sochlarni peshona o'rtasida uchli burchak xosil qiladi, ayollarda esa bu chiziq tekisroq bo'ladi.

Qoshlarning shakli ham turlicha bo'ladi. Ularni katta shaklda qurish kerak.


Qosh boshdan boshlanib keyin gorizontial yo'nalishni oladi, so'ngra qosh asosini tashkil etadi va uchi bilan tugaydi. Qoshlarni qurishda ham sochlar o'sishi taassurotini yetkazib berish kerak.

Topshiriqqa bo'yinni ham yasash kiradi. U hamma vaqt ham portret kompozitsiyasiga kiradi va boshda u yoki bu harakanni ifoda etadi.

Bo'yining suyakli asosi bu umurtqa ustunining bo'yin qisimidir. Uning asosi orqa tomondan uchli o'sinta, etinchi bo'yin umurtqa pog'onasi bo'lib ko'rinish turadi, oldi tomondan u ko'krak chuqurchasidan boshlanadi.

Bo'yining anatomik tuzilishi juda murakkabdir. Haykaltaroshlik nuqtai nazaridan u bir qator muskulilar va ularni o'rab turgan pardalardan tashkil topgan juda murakkab hajmini tashkil etadi. Old tomonda xiqildoq do'ngligi aniq ko'rinish turadi va erkaklarda bu do'nglik ayollar va bolalardan ko'ra kattaroq bo'ladi. Yon tomondan bo'yin ko'krak, o'mrov, so'rg'ichsimon, ko'ndalang, baland, past muskulardan tuzilganligi ko'rinish turadi. Orqa tomonida do'ngligi va etinchi bo'yin suyaqi orasida payilar o'rtib, ular muskulilar bilan qoplangan bo'ladi. Bu pay orqa tomon do'ngligidan kurak suyaklariga va akromial o'sintaga qarab boradi. Bo'yin plastikasini old tomondan ko'krakdagi bo'g'in, muskulilar ancha yaqqol ko'rsatib turadi (ayniqsa bosh bir tomonga qayrilganida). Bosh etyudini ishlashda talabalar nisbat - o'ichovlarni ham hisobga olishlari kerak, masalan yanog suyaklari kengligi va hokazo.

Talabalar amaliy ishlari davomida bunday o'ichovlardan karraroq foydalanishlari bilan birga ko'zlarni masbuq qilishlari, to'g'ri nisbatlar olish, hajm, og'irlik o'ichovlarini o'rganib olishlari ham kerak bo'ladi. Odam boshi etyudini ishlash bo'yicha uslubiy ketma-ketlik tartibi 39,40,41 - rasmlarda ko'rsatilgan



39, 40, 41 - rasmlar

Mavzu: Anomniya haqida suhbat

1. Anomniya haqida umumiy tushuncha.
2. Skeletdagi umumiy tuzilish.
3. Lepka chechini o'rganish. Haykataroshlikda inson kalla tuzilishini o'rganish.
4. O'rganishni aniq haykataroshlikda qo'llanilishi.

Plastik anomniya ko'pgina xalqlarning tasviriy san'atida yetakchi o'rinni egallab kelgan. Tarixga nazar tashlasak buning isbotini ko'ramiz. Leonardo da Vinchi va Mikelandjelo, Dyuver va Losenko, Reping va Salvodor Dalilar ham plastik anomniya o'rganish.

Anomniya tirik organizmni tuzilishini o'rganuvchi fandir.

Anomniyaning bir necha bo'limlari alohida fan sifatida bir-biridan farq qiladi. Tabiiy anomniya sog'lom organizm shaklida tuzilishini, patologik anomniya organizm kasal bo'lgandagi o'zgarishini, qiyosiy anomniya esa inson va hayvonlar organizmidagi o'xshashlik va har-xil tuzilishini o'rganadi. Ana shu bo'limlardan biri plastik anomniya xisoblanadi. U musavvurga kerakli va ko'rinishi inson tanasi, yuz va suyak muskullarining ichki xarakatlarini o'rganadi.

Anomniyani o'rganishdan maqsad, talabalarni grafik rassom fakulteti inson anatomiyasining qurilishini, tashqi va ichki ko'rinishini analiz asosida amaliyotda qo'llash.

Har qanday o'qitish kursi kabi, plastik anomniyani o'rganishda nazariy va amaliy, praktikada o'rganiladi.

O'qitishni nazariy bilimni yana ham mustahkamlashda praktikani vazifasi katta inson tanasi va muskullarni o'rganish talabalar skeletni o'rganib keyin inson muskullarini ish bajarishi va ularni tanadagi joylashishini amaliy va nazariy tasavvurda rivojlantiradi.

Muskullarning tutashish va yopishi va qanday ish bajarishi nazariy analiz asosida o'rganiladi.

Anomniya terminlari:

- Aylanish o'qi
Gorizontal aylanish o'qi (V) Sagital yoki o'rta aylanish o'qi (S).
Asosiy sath kesimlari.
Frontal sath kesim (A)

Vertikal aylanish o'qi (A)

- Sagital yoki o'rta sath kesimi (V)
Gorizontal sath kesimi (S)

TAYANCH XARAKATLANISH SISTEMASI

Oldingi mavzuda qayd etilganidek, odam organizmining hayoti doimo tashqi muhit bilan chambarchas bog'liq. Bu boglanishda tayanch-xarakatlanish sistemasi muhim rol o'ynaydi. Harakatlanish tufayli odam ish bajaradi, atrofdagi odamlar bilan mulogorda bo'ladi (og'zaki va yozma nutq orqali), jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadi.



Odamning harakatlari juda xilma-xil va turli maqsadga

qaratilgan bo'lib, bola o'sib-ulg'aygan sari bu xarakatlar rivojlanib, tobora mukammallashtirib boradi.

Tayanch-xarakatlanish sistemasi tuzilishi. Bu sistema uch qismdan: suyak, muskul va nerv sistemasiidan iborat.

Suyak sistemasi. Odam skeleti

Suyak sistemasi odam skeletini tashkil qilib, uning funksiyasi ko'p qirrali. Eng muhimi gavadada u tayanch va himoya vazifasini bajaradi. Skeletning tayanch funksiyasi tufayli odam o'z qomatini to'g'ri tutadi. Skelet ichki organlarni, qon tomirlari nerv sistemasi himoya qilish vazifasini ham o'taydi.



- Bosh suyagi: 1- peshona suyagi; 2- tepa suyagi;
3- ensa suyagi; 4- chakka suyagi; 5- pastki jag' suyagi;
6- yuqori jag' suyagi; 7- yonoq suyagi;
8- ko'zyosh suyagi; 9- burun suyagi;

Masalan, bosh miya kalla suyagi qopqog'i ichida, orqa miya umurtqa pog'onasining kanalida; o'pkalar, traxeya va bronxlar, yurak va yirik qon tomirlari ko'krak qafasida joylashganligi tufayli tashqi muhitning noqulay ta'siridan himoyalangan.


Suyaklarning ko'mik qismida qonning shakilli elementlari (eritrotsitlar, leykotsitlar, trombositlar) ishlab chiqariladi. Bundan tashqari, suyaklar mineral tuzlar depoziti (to'planadigan joyi) bo'lib xizmat qiladi.

Odam skeleti 206 ta suyakdan tashkil topgan bo'lib, ularning 85 tasi juft, 36 tasi toq suyaklardir (8-rasm). Ba'zi adabiyotlarda tishlar bilan birgalikda suyaklarning soni 250 ga yaqin deb ko'rsatilgan.

Suyaklar 4 xil shaklda bo'ladi.

Naysimon suyaklar — bular o'z navbatida ikki xil bo'ladi, uzun naysimon suyaklar (yelka, bilak, son, boldir suyaklari); kalla naysimon suyaklar (qo'l va oyqning kaft va barmoq suyaklari).

Qovrak suyaklar — bular ham ikki xil bo'ladi. Uzun g'ovaksimon (qovurg'a, to'sh, o'mrov), kalla g'ovaksimon (umurtqa, qo'l va oyqning kaft, kaft-ust, bilakuzuk) suyaklar.



Yassi suyaklar — bosh suyagidagi tepa, ensa, yuz, kurak va chanq suyaklari.

G'alvrisimon suyaklar — yuqorigi jag', peshona, bosh suyagining pastki asos qismidagi pomasimon va g'alvrisimon suyaklar.

Odam tanasidagi suyaklar joylashishiga qarab bir nechta qismga bo'lib o'rganiladi: bosh, gavda, qo'l vaoyoq suyaklari.

Bosh suyagi 23 ta suyaklarning birlashidan tashkil topgan bo'lib, ikki qismga bo'linadi: miya qutisi suyaklari va yuz suyaklari.

Miya qutisi suyaklari: peshona — 1, tepa — 2, chakka — 2, ensa — 1, asosiy — 1, g'alvrisimon — 1 ta suyaklar kiradi.

Yuz suyaklari: yuqorigi jag' — 2, yonoq — 2, burun — 2, ko'z-yosh — 2, pastki burun chanog'i — 2, langlay — 2, pastki jag' — 1, dimog' — 1, til osti — 1 ta suyaklar kiradi.

Pastki jag' va chakka suyaklari bir-biri bilan bo'g'im hosil qilib birlashadi. Bu bo'g'im ulfayli pastki jag' xilma-xil harakatlarni bajaradi va natijada odam ovqatni chaynashi, so'zlash, kuylash imkoniga ega bo'ladi.

Yuqorida aytilganidek, yosh bolalarda bosh suyagi 23 ta alohida suyaklardan tashkil topgan bo'lib, ular bir-biri bilan suyak choklari yordamida birlashadi. Ularning birlashishi bo'linib 2—3 oyliqdan boshlab, u voyaga elguncha davom etadi.

Gavda skeleti. Odanning gavda skeleti ikki qismdan iborat: umurtqa pog'onasi va ko'krak qafasi.

Umurtqa pog'onasi 33—34 umurtqaning birlashidan hosil bo'lib, uzunligi odanning bo'yiga qarab 70—90 sm-gacha bo'ladi. Umurtqa pog'onasi odam skeletining markaziy qismi bo'lib, unga barcha suyaklar tutashib turadi va u tananing asosiy tayanchi bo'lib xizmat qiladi. Umurtqa pog'onasi 5 qismdan iborat: bo'yin — 7, ko'krak — 12, bel — 5, dumg'aza — 5 va dum — 4-5 ta umurtqadan tashkil topgan (10-rasm).

Umurtqa halqasimon suyakdan iborat bo'lib, oldingi — tana qismi yo'g'onlashgan, orqa qismi ingichka yoyasimon bo'ladi. Umurtqaning tanasi bilan yoyi qo'shilib, *umurtqa restigini* hosil qiladi. Umurtqalarning orasida tog'aydan iborat umurtqa oralig' disklar bo'ladi. Umurtqalarning bir-biri bilan tutashishi natijasida *umurtqa pog'onasi kanali* hosil bo'ladi. Bu kanal ichida orqa miya joylashadi.

Ko'krak qafasi suyaklariga 12 ta ko'krak umurtqasi, 12 juft qovurg'alar va to'sh suyagi kiradi. Bularning bir-biri bilan birlashishi natijasida *ko'krak qafasi* hosil bo'lib, unda odam hayoti uchun muhim bo'lgan ichki organlar joylashadi.



Umurtqa pog'ona

A- oldindan ko'rinishi: 1- bo'yin qismi;

2- ko'krak qismi; 3- bel qismi;

4- dumg'aza qismi; 5- dum qismi.

B- yon tomondan ko'rinishi (o'rassidan aralgan): 1- umurtqa pog'onasining kanali; 2- bo'yin.

Ko'krak qafasi:

1-7 haqiqiy (chin) qovurg'alar;

8-10 soha qovurg'alar;

11-12 ctim qovurg'alar.

Qovurg'alarining 12 jufti ham orqa tomondan ko'krak umurtqalariga birlashadi. Ulardan 7 juft *haqiqiy (chin) qovurg'alar* deyilib, oldingi tomondan to'sh suyagining yon tomoniga o'zining tog'aylari yordamida bevosita birlashadi. Ulardan pastki uch jufti soxta qovurg'a deyilib, bular bir-biri bilan tog'ay yordamida o'zaro, so'ngra esa 7-qovurg'aning tog'ayiga birlashadi. Bular ham pastda joylashganlari (11-12 qovurg'alar) oldingi tomondan to'sh suyagiga birlashmay, qorin muskullari orasida joylashadi. Bular *yelim qovurg'alar* deyiladi.

To'sh suyagi yassi suyaklar tukumiga kiradi. U uch qismdan yuqorigi—dasta, o'tra—tana qism va pastki—qilichsimon o'simlardan iborat.

Qo'l suyaklari. Qo'l suyaklari ikki qismga: yelka, kamar suyaklari va qo'lning erkin suyaklariga bo'linadi.

Yelka, kamar suyaklariga kurak va o'mrov suyaklari kiradi. *Kurak suyagi* uchburchak shaklidagi yassi suyak bo'lib, ichki botiq yuzasi bilan ko'krak qafasining 2—7 qovurg'alari ustiga yopishgan bo'ladi. Kurakning tashqi burchagida bo'g'im yuzasi bo'lib, u yelka, suyagi bilan birlashishga moslashgan. *O'mrov suyagi* ichki tomondan to'sh suyagiga, tashqi tomondan kurak suyagiga birlashadi. U yelka, bo'g'imining harakatlarda muhim rol o'ynaydi.

Qo'lning erkin suyaklariga yelka, bilak-tirsak, kaft ust, kaft va panja suyaklari kiradi. Yelka, suyagi uzun naysimon shaklda bo'lib uni yuqorigi uchi kurak suyagi bilan birlashib, yelka, bo'g'imini, pastki uchi esa bilak-tirsak suyaklari bilan birlashib, tirsak bo'g'imini hosil qiladi.

Bilak suyaklari 2 ta naysimon, ya'ni bilak va tirsak suyaklaridan iborat. Bilak suyagi qo'lning tashqi tomonida, tirsak suyagi qo'lning ichki tomonida joylashgan. Bu suyaklarning yuqorigi uchi yelka, suyagi bilan birlashib, tirsak bo'g'imini hosil qiladi, pastki uchi esa bilakuzuk (kaft ust) suyaklari bilan birlashadi.

Panja suyaklari uch qismdan: bilak-uzuk, kaft va barmoq suyaklaridan iborat. *Bilakuzuk suyaklari* 8 ta bo'lib ular 4 tadan ikki qator bo'lib joylashgan. *Kaft suyaklari* 5 ta bo'ladi. *Barmoq suyaklari* bosh barmoqda 2 tadan, qolganlarida 3 tadan bo'ladi.

Oyoq suyaklari. Oyoq suyaklari ikki guruhga: chanog va oyoqning erkin suyaklariga bo'linadi. *Chanog, suvagi* ikki tomondan nomsiz suyaklardan, orqa tomondan dumg'aza, dum, umurtqa suyaklaridan tashkil topgan. Chanog suvaging yuqori qismi kengaygan bo'lib, *chanog*, deyiladi, pastki qismi toraygan bo'lib, *kichik chanog* deyiladi. Kichik chanog bo'shlig'ida to'g'ri ichak, siydik pufagi, qon, limfa, nerv tomlari va tugunlari hamda jinsiy organlar joylashgan. Chanog suvaging tashqi yon tomonida qo'yinich kossasi deb ataluvchi chuqurcha bo'lib, unga son suvaging yunalmoq boshchasi birlashib, son chanog bo'g'imini hosil qiladi. Bu bo'g'im orqali tananing og'irligi oyoq suyaklariga o'tkaziladi. Odanning chanog suvagi ba'zi erkaklarda 1200 kg og'irlikdagi yukni ko'tara oladi.

Oyoqning erkin suyaklariga son, boidir va oyoq panjasining suyaklari kiradi. *Son suvagi* eng yirik va baqaruvaa naysimon suyakdir. U 1500 kg gacha bo'lgan yukni ko'tarishi mumkin. Yuqorida aytilganidek, bu suyakning yuqorigi uchi yunalmoq bo'lib, chanog suvaging chuqurchasiga kirib, son-chanog bo'g'imini hosil qiladi. Suvakning pastki uchi katta boidir bilan birlashib, tizza bo'g'imini hosil qiladi. *Tizza qopqog'i* suvagi eng yirik erkin (sesamosimon) suyak bo'lib, u tizza bo'g'imining oldingi yuzasini yopib turadi. Bu suyakka sonning to'rt boshli muskulining payi birlashadi.

Boidir suyaklari katta va kichik ikkita naysimon suyakdan iborat. *Ilamma boidir suvagi* boidirning ichki tomonida joylashgan bo'lib, uning oldingi qirrasi o'ltiroq bo'laadi. Suvakning yuqorigi uchi kengayib, son suvaging pastki uchi bilan birlashishga moslashgan. Pastki uchi yunalmoqlashib, ichki to'pikni hosil qiladi. *Kichik boidir suvagi* boidirning tashqi tomonida joylashib, uning yuqorigi uchi yo'g'onlashib, katta boidir suvaging yuqori qismiga birlashadi. Pastki qismi oyoqning tashqi to'pig'ini hosil qiladi va *oshis suvagi* bilan birlashadi. Oyoq panjasining suyaklari har xil kattalikdagi 27 ta suyakdan iborat bo'lib, ular uch guruhga bo'linadi: tovon suyaklari — 8 ta, oyoq-kalt suyaklari — 5 ta va barmoq suyaklari — 14 ta.

Odami tik yurishga o'tishi natijasida oyoq suyaklariga tushadigan og'irlikning o'tishi va hilma-xil harakatlarning bajarilishi bu suyaklar funksiyasini oshirib, ularning rivojlanishiga va mustahkamlanishiga sabab bo'lgan.


Oyoq suyaklari:

- 1 — chanog suvagi; 2 — son suvagi; 3 — chanog-son bo'g'im; 4 — tizza qopqog'i suvagi; 5 — katta boidir suvagi; 6 — kichik boidir suvagi; 7 — tovon suvagi; 8 — oyoq kalt suyaklari; 9 — panja suyaklari.

MAVZU: PLASTIK ANATOMIYA VA UNING TARIXI INSON TANASIDAGI QURILMASI.

Rassom tasvirlayotgan asarida plastik anatomiyani to'g'ri ko'rinishi inson tanasidagi xarakter va plastikasini tasvirlaydi, izohlaydi.

O'tgan asrlar davomida plastik anatomiyani inson tanasidagi



proportionallikni o'z ishlarida amaliyotda qo'llagan rassomlar va haykaltarosh IV va V asrlarda - Mironom, Fidion, Praksitelem, Lisipicheskoy, (XV-as) Leonardo da Vinchi va Mikelandjello Buonarroti - butlar uyg'unlash davrining avliyo rassomlari bo'lishgan. Ular asarlarida plastik anatomiya analizi asosida o'rgananganlar.

Keyingi taniqli plastik anatomiyani ilmiy o'rganagan rassomlarimiz - Rafael Andree, Vezally, Parkomper, Guddon, Dyurer va boshqalardir. Plastik anatomiyani (rus rassomlari XIX-asr) A.P.Losenko, A.I.Ivanov, V.U.Shebuevlar amaliyotda qo'llaganlar.

1. To'g'ri inson tanasidagi proporsiyani o'lchash.

2. Insonni kalla qismini lepka qism bo'yicha nisbatan nisbatlarga taqqoslanishi.

3. Umumiy o'lchamni to'g'ri topib keyin aniq konstruksiya asosida ko'rish.

Tasvirlanayotgan jisimga nisbatan to'g'ri proporsiya ijodiy ishlayotgan vaqtda tez va aniq belgilab olib, xarakter, joylanishi xatosiz bajarish uchun to'g'ri o'lchamni ahamiyati katta.

ODAM QOMATI HAYKALINI O'ZIGA QARAB ISHLASH

Haykaltaroshlikda odam qomatini o'ziga qarab haykalini ishlash ta'lim bosqichlarida eng murakkab, shuning bilan bir qatorda eng qiziqarli mashg'ulot turaridan biri bo'lib, talabdan nafaqat amaliy ko'nikmalarni balki plastik anatomiya bo'yicha chuqur nazariy bilimlarni talab etadi.



Odami haykalini ishlashni oldingi vazifalardagidek ish joyini va haykal asosini bajarishdan boshlash kerak. Asosni to'g'ri qurib olish uchun model shaklini o'rganib olinadi. U bo'lajak tananing skeleti hisoblanib, model harakati asosining o'zidayoq to'g'ri topilgan bo'lishi lozim. Asos o'qlari odam tanasi asosiy o'qlariga mos qilib olinadi.

Avvaliga qalinligi 20-30 mm, taxtachalardan bir 20x25 sm hajmda tekislik yasab olinadi. Unga diametri 10-16 mm simdan asos yasab o'rnatiladi. Haykal yasatadigan "G" shaklidagi karkas asosga mahkamlanadi (42-rasm). Shundan keyin simdan qomatning asosi yasab olinadi.

Qomat karkasi uchun simning yumshog'i olinadi, (kerak bo'lgan xollarda uning shaklini o'zgartirish uchun) shu bilan birga u mustahkam bo'lishi ham kerak. Chunki u loy og'irligini ko'tarib tura olishi kerak. (44-rasm).

Oyoq va qo'llar uchun karkasi alohida yasaladi, aks holda bir qo'lni qimirlatganda ikkinchisi ham burilib kyetishi mumkin.

Karkas g'avda qismidan boshlanadi. U uchburchak shaklidagi xalqa shaklida bo'ladi. Xalqaning asosi yuqoriga, bo'sh uchlari esa kichik vertikal ustun uchidan o'tkazilib g'orizontal yelkaga mahkamlanadi. Kichik vertikal ustun va g'orizontal qismida simni asosiy ushuna mahkamlanadi.



42, 43-rasmlar,

Gavda qismini xalqasini shunday qilib olish kerakki, uning yuqori qirasi yelka, suvegidan bir oz pastda joylashsin. Gavda xalqasi yuqori burchaklari ko'krak qismini suyaklaridan oldinga chiqib ketmasin.

Bosh va bo'yin uchun sin gavda xalqasidan o'tib (huddi umumiy suyaq kabi) yuqori qismini kesishishda mahkamlanadi, keyin u kichik vertikal ustunga boradi va so'ngi gorizontal yelkaga qayriladi. Ana shunda, bosh joylashadigan yerda ustun xalqaga o'tadi. Uning balandligi etyud shaklining butun balandligida olinadi. Qo'l uchun simni gavda xalqasiga uch-to'rt joydan mahkamlanadi. Qo'l yashash uchun simning uzunligini hisobga olish kerak. Agarda u pastga tushirilgan holatda bo'lsa barmoqlarning uchi belning taxminan o'rtalariga to'g'ri keladi.

Oyoqlar uchun simlar kichik vertikal ustunga mahkamlanib, taxta tekisligiga uchlarini burib qo'yiladi. Shu yerda u tekislikka deyarli tegib turadi, lekin unga mahkamlanmaydi. Chunki kerak bo'lganda ularni bema'ol qimirlatish mumkin bo'lsin. Karkas asoslari tayyor bo'lgandan keyin, yelka, bel va son joylashadigan nuqtalarga bir oz simlar o'rab chiqish kerak.

Bu ish singa loy quyilganida og'irlik qilib tushib ketmasligi, sim atrofiga aylanmasligi va yaxshi yopishib turishi uchun kerak.

Haykalni yasash loyi gavda asosiga surib chiqishdan boshlanadi, uning qalinligi yasab bo'lingan karkasga qarab olinadi. Shundan keyin shaklni yasashga, harakatlarni aniqlashga nisbatlarini belgilashga va ularni umumiy yaxlitlikka keltirishga kiritiladi.

Haykalni yasashda tirik modelning harakatini his etish, uning nisbatlarini to'g'ri belgilash va shakllar plastikasi orqali yelkazib berish juda muhim.

Umumiy hajmini ko'rsatib olib va nisbatlarini aniqlagandan so'ng haykalning

umumiy hajmi bilan keltirishga o'tiladi. Tirik odamning haykalini yasashda eng asosiy umumiy hajmini ko'rsatib olib va nisbatlarini aniqlagandan so'ng, haykalning umumiy hajmi bilan solishtirishga o'tiladi.

Tirik odamning haykalini yasashda eng asosiy bu insonning anatomik jihatdan tuzilishini va muskullarining xaqiqiyatini ko'rsatib berishdir. Lekin bu hamma muskullarni aniq tasvirlash degani emas: faqatgina eng katta va ko'rinadigan muskullarni aniqlash va ishlash kerak.

Ko'pincha bunda model bir oyoqiga tayanib turgan, ikkinchisi esa hiyol taxtaga tegib turgan holat tanlanadi. (44-rasm). Asimmetrik turish holatida bo'sh oyoq son qismini yuqoriga ko'tarilib, tayanch oyoq tomonga qiyva bo'ladi, bir elka esa ikkinchisidan balandroq turadi. Shu bilan birga umumiy pog'onasi va asosiy oldingi o'q chizig'i tayanch oyoqdan og'irlik holi tomonga egilib turadi. Etyudning shakli butun balandligini bilgan holda darhol bo'yin chuqurchasini va og'irlik markazini belgilab olish kerak. Shundan keyin tayanch oyoq bilan bo'yin chuqurchasidan vertikal bo'yicha o'tuvchi chiziqni aniqlab olish kerak: buni orqasidan ham oldidan ham, yonidan ham ko'rib aniqlandi.

Agarda bo'yin chuqurchasidan tikka chiziq tortilsa u tayanch oyoq tovonidan o'tadi.

Etyud harakatlarni to'g'riligini vaqti-vaqti bilan tekshirib turish kerak (bunda chap va o'ng tomon goyuriga suyaklari va erkin turgan oyoqning ichki muskullari o'zaro qanday moslashishlari aniqlanadi).

Tananing katta qismlari nisbatlarini oldindan to'g'ri olishga harakat qilish kerak masalan, oyoqning gavda va boshga nisbatan uzunligini aniqlash va hokazo. Katta o'lichamlarning nisbatlarini aniqlab olgandan keyin kichiklarini doim bir biriga tez-tez taqqoslab borish lozim.

Modelning xarakteristikasini aniqlashga o'tishda (boshqacha aytganda o'xshashligini yelkazib berish) lama qismlari xarakterli xususiyatlarini tushunish belga nisbatan yelkaning va ko'krak qismining holati qandayligini bilib olish bo'yinning bosh burilishi va egilishiga nisbatan harakatlarni ko'rib chiqish muhimdir.

Hajmli shaklni qurishda o'q chizig'i yoki butun tananing old o'rtasiga chizig'i mo'ljallab bo'lishi kerak. Old o'qi butun suyaqdan dahanga, bo'yin chuqurchasiga ko'krakdan oyoq tomonga va tayanch oyoqning ichiga tushadi; orqa o'qi esa kalla orqa suyaq do'ngiligidan ettinchi bo'yin umumiy suyaqiga va shundan keyin umumiy bo'yab ketadi. Sinaga loyi surib oldingi va orqa o'qlarini belgilab olinadi. Masalan bo'yindagi chuqurchani topib olib darhol bo'yin yetinchi umumiy suyaqini aniqlab olish kerak oldingi yuqori va orqa yuqori yon suyaklari bir xil qiyalik egilishlarini qurib olish lozim. Shu bilan birga tovonidan tizza ko'zining uchigacha undan esa o'sha oyoq suyaqining beligacha bo'lgan masofani topish, bo'yin chuqurchasigacha o'lichash va ularning bir - biriga nisbatlarini aniqlash kerak.

Shaklni qurish balandligini aniqlash va nisbatlarini belgilashda juft tayanch nuqtalardan foydalanish lozim. Ularni to'g'ri aniqlash modelning asosiy harakatlari yelkazib berishga yordam beradi.

Bu nuqtalar quyidagilardir: bo'yin chuqurchasi orqadan esa yetinchi bo'yin umumiy suyaq; yelkaning juft suyaklari (ular orqali yelka, kengligi aniqlanadi), katta burilish yon tomon suyaklari, yuqori oldingi qirasi va burilish chuqurchasi, tizza

ko'zlari, tovon suyaklari, ichki to'piq va tashqi to'piq oyoqlar katta barmoqlari, tirsaklar, tirsak suyaklari do'nglik o'simatlari, qo'llar o'ra barmog'i uchlari, quloq supralari va shu kabilar.

Shu bilan birga har bir alohida qismini aniqlashda ularning markaziy tayanch nuqtalarini ham bilish kerak. Bu burun suyagi boshlanishi, burun suyagi, dahan aylanasi yelka, chuqurtigi, ko'krakdagi o'simtasidir.

Haykal yasashda shakllarning har bir alohida qismlari o'q chizig'ining yo'nalishlarini aniqlashga katta ahamiyat beriladi. Harakatlarni aniqlash to'laqligicha shularga bog'liq bo'ladi. Bu bosqichda gavdaning bo'laklarini bir vaqtning o'zida chap va o'ng tomonlarini simmetrikligini esdan chiqarmadan ishini olib borish kerak. Shaklning sirameetrikligi faqatgina alohida qismlaridagina bo'linmasligi kerak. Masalan, ko'krak qafasining tomonlari organdan ham oldindan ham bir-biriga mos kelishi kerak.

Ko'pincha talabalar shunday xatolar uchraydi: belga nisbatan yelka, kengligi ogishi to'g'ri olingan bo'lsa ham o'mrov suyagi va ko'krak burchaklaridan o'tadigan chiziqlar qiyaligi noto'g'ri olingan bo'ladi.

Haykanning boshlanish davridayoq hali bosh tuxum, bo'yin esa sinird shaklidagidayoq boshning umumiy kengligini uning bo'yinda joylashtirilishi, eining baliandligiga nisbatlarini to'g'ri olish kerak. Aynan ana shu bosqichda bosh va bo'yinning xarakatini aniqlash kerak uning holatini ifoda etuvchi oralar ana shunga bog'liq bo'ladi.

Ko'krak - yelka, muskullari harakatlari va plastikasiga e'tibor berish lozim va bo'yinning butilishi va boshning unga ulanishi, birlashishini aniq ifoda etish kerak.

Shundan so'ng, boshning o'ra va ko'ndalang o'q chiziqlari belgilanadi: ko'ndalang o'q chizig'i ko'z kosasi o'rtasidan quloq teshtiklari orqali o'tkaziladi.

Bu esa boshning fazodagi xolatini darhol aniqlash imkonini beradi hamda boshga keyingi ishlovlar berish va umuman shakliga ishlov berishda yordam beruvchi o'ra chiziq va ko'ndalang chiziq kesishishi nuqtasi burun suyagi yuqori nuqtasini belgilab beradi. Bularni yasashda yelka, kuraklar hamda ularni gavda bilan bog'lab turuvchi muskullarga e'tibor berish kerak (ko'krak katta va kichik muskullari) (trapetsiya ko'rinishidagi muskullar) orqa tomon keng muskullari va shu kabilar). Shundan keyin yelka, kamari kengligi va qo'llarini ko'rsatuvchi nuqtalarni yana bir bor tekshirib chiqish kerak (aynan: old tomonidan o'mrov suyagi va akromial - o'mrov suyagi asoslarini) (ilgaksimon o'simatlari, yelka, suyagi boshchasini yelka, suyagi qo'ltiq to'qimalarini, blak suyalar boshlarini) orqa tomondan kurakning umurtqa yonlarini, kurak suyaklari, kurakning paski va yuqori burchaklarini va hokazolar.

Haykal yasashni yakunlashda ushbu namunada aniqlangan xususiyatlarni yetkazib berishning yaxlitligiga katta e'tibor berish kerak. (45-rasm).

Shakllarni modellashtirishda eyudndan bir oz uzog'lashish tavsiya etiladi (shunda haddan tashqari ortiqcha batafsillikka yo'l qo'yilmaydi va haykalni yaxlit ko'rish imkonini bo'ladi).

QUSH VA HAYVONLARNING HAYKALINI ISHLASH.

Qush va hayvonlar haykalini yasashda quyidagi vazifa qo'yiladi: tasvirlanayotgan tirik mavjudotlar shakllarning individual o'ziga xosligini iloji boricha xaqiqiy va aniqroq ko'rsatib berish uchun ularning harakatlari va odatlarini, o'ziga xosligini anatomik tuzilishlarini o'rganib olish maqsadida ular dan har tomondan qalamchizgilar bajarib olinadi. Haykallarni yasashda ushbu namunalar dan va ularning eng xarakterli rindan foydalaniladi. Chizgilarni yon, old va orqa tomonlaridan bajarish kerak. Ular keyinchalik haykalchalarning baliandligi, uzunligi va kengliklarini aniqlashda yordamchi material bo'lib xizmat qiladi.

Qalamchizgilar bajarishda ular tanasining tashqi shaklini, anatomik tuzilishlarining bog'liqligini diqqat bilan o'rganib chiqish tavsiya etiladi.

Avvaliga modelning deyarli tinch holatda turganida chizib olgan yaxshi bo'ladi (yotgan, oyoqlanayotgan va boshqalar).

Shundan keyin hayvon yoki qushlarning o'ziga xos shakllarini ko'rsatib harakatlari, odatlari, uning hayot sharoitiga xos xususiyatlarini ifoda etishga harakat qilish kerak.

Qush yoki hayvonning haykalini yasash uchun taxtachta tayyorlab olinadi. Uning kattaligi tanlab olingan kompozitsiyaga bog'liq bo'lishi kerak. Shundan keyin sindan sinch tayyorlanadi. Agarda eyud katta bo'lmasa uning uchun sinch bo'lmagligi ham mumkin. Yerdan yotgan va o'tirgan hamda oyoqlari baqavvat bo'lgan hayvonlarni tasvirlash uchun ham sinch kerak bo'lmaydi.

Agarda eyudni sinchda bajarish zarur bo'lganida uning konstruktivasi oltin model skeleti asosiy o'qlari ko'rsatilgan chizgi orqali aniqlab olinadi. Qush yoki hayvon haykalini ishlash uchun simli sinch taxta asosga mahkamlanadi.

Asos baliandligi eyudning baliandligiga qarab olinadi. Asosni taxtaga mahkamlashda eyud markazda joylashishini mo'ljallab olish kerak. Sinchning hamma qismlarini asosga bog'lab mahkamlab olinadi.

Haykalni yasash loyni sim sinchga yopishtirib olishdan boshlanadi. Sinchga loy surtishdan avval gavda katta qismlari xarakatlari va nisbatlari aniqlab olinadi (boshi, bo'yini, oyoqlari dumi va xokazo).

Bir qismini yasab turib, modelning boshqa qismlariga nisbatlarini qarab borish kerak, shuni esda tutish kerakki, eyudni haddan tashqari batafsil bajarish, masalan hamma to'qimalarini (alohida tuklarini ko'rsatib o'tish) uning umumiy ko'rinishiga putur yetkazadi. Shuning uchun faqatgina ushbu model uchun eng o'ziga hos belgi xislatlarini ko'rsatishga harakat qilish shart.

Shakllarning tuklar patlar bilan berkitilgan va birlashgan joylarini belgilab olib (bunda tashqi ko'rinishdan emas, tuzilishdan kelib chiqib) namunaning umumiy harakatlari belginadi tana qismlarining gorizontal va vertikal bo'yicha nisbatlarini aniqlashga o'tiladi.

Misol uchun o'tirgan hayvonning gorizontal shakli bo'yicha boshi, tanasi dumi baliandligi va oyoqlari uzunligi nisbatlari belgilab olinadi. Bunda o'ra chizig'ini ham hisobga olish kerak. Modelning asosiy harakatlari to'g'ri ko'rsatish ularni simmetrik qurish va bo'laklarni namunaning shakli bo'yicha umumiy ko'rinishiga bo'yasundirishiga bog'liq bo'ladi. (45-rasm).



45-rasm

O'zbekistonda haykaltaroshlik san'atining taraqqiyoti tarixidan

Haykaltaroshlik qadimgi Farg'ona, Qang' davlatida ham keng ko'lamda rivojlangan. Buyuk ipak yo'lining ta'siri o'timish tasviriy san'atga ham katta bo'lgan. Buyuk ipak yo'lining xalqlar o'rtasida san'atning uyg'unlashuviga ta'sir o'tkazganini Kushonlar davri misolida yanada yaqqolroq ko'ramiz. Darhaqiqat O'zbekiston tasviriy san'at tarixining katta bir qismi Kushonlar davri bilan chambarchas bog'liqdir. Bu davrda qadimgi xalqlarning turlicha dunyoqarashlari tasviriy san'at asarlarida o'z aksini topgan. Ularning birida buddizmga xos belgilar aks ettirilgan bo'lsa, ikkinchi bir namunalari Zardushtiyar e'tiqodi ramzlari ilig'aymiz.

Kushonlar davri san'atining xilma-xilligi, bu imperiya juda katta hududga egaligi, ko'p xalqlarni birlashtirganligi bilan ham izohlanadi. Kushonlar davrida madaniyat va san'at yuksak pog'onaga ko'tarilgan.

Kushon podshohligi bu aslida siyosiy tushuncha bo'lib uning jug'rofik nomi Bagriya deb ataladi. Buyuk Bagriya hududiga oid yaratilgan tasviriy san'at asarlari o'zining go'zalligi, nafisligi bilan diqqatga sazovordir. Bu davrda haykaltaroshlik san'atining turli ko'rinishlari keng rivojlangan. Ko'p xollarda haykallarning diniy xususiyatga ega ekanligi ochiq ko'rinadi. Bagriya hududidan topilgan haykallarda sevgi, o'llaviy baxt, sehsosillik kabi g'oyalar olg'a suriladi.

Arxeologik izlanishlar jarayonida Buddaning tik turgan holatidagi, chordona qurib o'tirgan, hatto yotgan hollardagi ko'rinishlari aks etgan haykallar topilgan.

Kushonlar davrida budda ibodat xonalarning yaratilishi, o'z navbatida buddizmga hos badiiy bezaklar ishlanishiga sababchi bo'lgan. Masalan, Dalvarzintepadan topilgan, II - asrning ikkinchi yarmiga oid Vima Kadfis langusning old tomonida shoh o'ng qo'li mehrob uzra cho'zilgan holda, boshiga yalov lasmali uzun kulox kiygan holda tasvirlangan. Olimlarning fikriga qaraganda bu tangedagi doira shaklidagi yunon yozuvi "Shohlar shohi Vima Kadfis Kushon" degan ma'noni anglatadi.

Eftalilar, Turk bogonliklari davrida ajoyib haykallar, nafis devoriy suratalar yuzaga kelgan. O'timish tasviriy san'at merosimizning eng muhim tomonlaridan biri shunda ediki, ajdodlarimiz boshqa xalqlar sa'natidan ta'sirlanibgina qolmasdan, ularga o'z ta'sirini ham o'tkaza olgan. Shu asosda xalqlarning uyg'unlashgan yuksak tasviriy san'at namunalari yaratilganligi tarixdan ma'lumdur. Sug'diyona, Bagriya, Parfiya, Choch, Xorazm, qadimgi Farg'ona hududlaridan topilgan qadimiy san'at ashyolari bizga mo'ziy dunyosidan xabar beradi.

Yugoridagilarga asoslanib, O'rta Osiyoda Buddizmni targ'atishi haykaltaroshlik san'atini rivojlanishiga imkoniyat yaratib, o'lkamizda eramiz boshlarida haykaltaroshlik ancha yahshi rivoj topgan degan fikrni ayta olamiz.

Biroq, VII-VIII asrlardan boshlab O'rta Osiyoni arablar tomonidan bosib olinishi bilan maballiy xalq uchun tasviriy san'atning bir necha tur va janrlari ta'qiqlab qo'yildi. Shulardan biri haykaltaroshlik san'ati mutloq, taqiqlangan edi. Chunki islom dini talablariga ko'ra jonli narsani tasvirlash,



aynigsa odam qomatini (haykallini) tasvirlash mumkin emas edi. O'zbekistonda XIX asr oxirlaridagina haykaltaroshlik namunalari asta — sekin ko'rına boshladi. Haykaltaroshlik Knyaz Romanov saroyi (Toshkent) oldiga o'rnatilgan hayvonlar haykali (it, kiyik), Moxi — Xosa (Buxoro) eshigi oldiga o'rnatilgan sherlar haykali O'ria Osiyodagi dastlabki haykaltaroshlik yodgorliklaridandir.

1886 yili Toshkentda bo'lib o'tgan ko'rgazmada Usta To'xta Sodiq Xo'jayev albastrdan yasagan ol va kiyikcha haykalchasini namoyish etgani ma'lum.


XX asrning ikkinchi yarmida A.Navoiy, Ulug'bek, Nizomiy, Jambul, Xamza kabi O'zbek nomoyondalarining haykallari yaratila boshlandi.

60-yillardan boshlabgina M.Musaboyev, A.Boymatov, H. Xusnidinbo'jayev, K. Saloxiddinov, A.Ahmedov, J. Qutimurodov, D. Ro'ziyoyev kabi o'nlab isicudodi O'zbek haykaltaroshlari ijodiy san'atga kirib keldilar.


2.3. Mustaqillik yillari haykaltaroshligi

Mustaqillik davri haykaltaroshlik san'atini mahobatli turida ishlangan ilk tarixiy asarlar sifatida Chirchiq shahrining markaziy shoh ko'chasida va poytaxtimizning Milliy bog'ida o'rnatilgan ulug' shoir Alisher Navoiy obraziga atalgan yodgorliklarni (E. Aliyev, N. Bandeladze, V. Degyarov, 1991 y.) I. Jabborov, K. Jabborovlar tomonidan yaratilgan Amir Temurning Toshkent shahrida o'rnatilgan mahobatli oltiq haykali, Samarqand shahridagi o'rnatilgan mahobatli haykallari, Farg'ona va Quva shaharlarida o'rnatilgan Ahmad al-Farg'oniyning ajoyib haykallari, Xorazmdagi Jaloliddin Manguberdil yodgorligi, R. Mirojievning Andijon shahriga o'rnatilgan «Zahiriddin Muhammad Bobur», «Cho'lpon», «Abdulla Qodiriy» haykallarini misol qilib ko'rsatish mumkin.


Istiqlol davri haykaltaroshligining yaqqol namoyandalardan I. Jabborov, K. Jabborov, A. Aliyev, A. Raxmatullayev, N. Bondladze, V. Degyarov, R. Mirojiev, P. Rodosimikov, A. Ryabisev, P. Axmedzyanov, Sh. Usmonov, K. Norxo'rozov, D. Ro'ziyoyev, T. Toshxo'jayev, J. Qutimurodov, U. Mardiyev kabi bir qator ijodkorlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Bu davr haykaltaroshligida milliy mafkuraga asoslangan mavzular va qisman yangi badiiy shakllar kashf etilganligini ham e'tirof etish lozim.



Qush va hayvonlar haykalini metodik bosqichlarda ishlash. 46-rasm



47-rasm.




48-rasm




49-rasm




50-rasm



51-rasm




52-rasm





33-rasm




34-rasm




HAYKALATAROSHLIKDA ISHILATILADIGAN DASTGOHLAR VA ASBOB USKUNALAR.




35-rasm. Yog'och steklar va haqalar




56-rasm. Kelyef ishlash uchun dastgoh.



57-rasm. Yog'och bolg'achalar



58-rasm. Aylanna dastgohlari



1. I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asrga imlmoqda T. «O'zbekiston», 1999.
2. H. Abdullayev San'at tarixi II jild I kitob «San'at», Toshkent, 2001.
3. E. Barchai. Anotomiya. Budapest, 1975.
4. B. Boymetov Haykaltaroshlik va plastik anatomiya. «Tasvitiy san'at va mulandislik graffikasi»bakalavriat yo'nalishi o'quv dasturi.
5. B. Boymetov «Plastik anatomiya» o'quv qo'llanma. T., 2005.
6. M. Pisarevskiy. Lerka Golov'i cheloveka. M. 1968.
7. A. E. Terentev. Izobrojenie jivотно x i plits sredstvami risunka jivopisi.
8. M. 1980. G. M. Pavlov, V. N. Pavlova «Plastik anatomiya» M. 1967.
9. V. P. Shevchenko «Odam anatomiyasi va rasmi». T., A. Qodiriy nomidagi Xalq me'osi nashriyoti 1996.
10. N. K. Ahmedov. «Odam anatomiyasi» Atlas. Ibr-Simo. T. I jild. 1996. II jild 1998.
11. M. I. Rabinovich «Odam, to'rt oyoqli hayvonlar va rattandalarning plastik anatomiyasi» T. O'qituvchi, 1971.
12. Изобразительное искусство 1-курс А.А. Унковского. Москва Провешение.
13. Школа изобразительного искусства. Академия художеств СССР. 1,2,3 том Москва. Изобразительное искусство. 1988 Автор народных художник СССР профессор В.В. Иогансон. Профессор Н.Н. Клиндухов, профессор А.В. Присяненко.
14. Maktabida tasvitiy sa'natni o'qitish metodikasi. R. Xasapov. «FAN» T., 2004Y.

Kirish.....	4
Haykaltaroshlik san'atini ahamiyati.....	6
Haykaltaroshlik materiallari va ashyolar bilan ishlash texnologiyasi.....	8
Haykaltaroshlik san'ati haqida.....	6
Ikki-uch buyumdan tashkil etilgan na'ywmorning relyefini ishlash.....	24
Gips na'yush rozetkasi relyefini o'ziga qarab tasvirlash.....	32
Gips modelardan odam boshini ishlash.....	33
Gips modellardan odam boshini ishlash.....	42
Odam boshini eynidini ishlash.....	50
Anatomiya haqida xubbat.....	60
Tayanch xarakteristik sistemasi.....	60
Plastik anatomiya va uning tarixi inson tanasidagi qurilmasi.....	66
Odam gomatli haykalini o'ziga qarab ishlash.....	67
Qush va hayvonlar haykalini ishlash.....	74
Qush va hayvonlar haykalini metodik bosqichlarda ishlash.....	68
Haykaltaroshlikda ishlatiladigan dastgoh va asbob uskunalar.....	80
ADABIYOTLAR.....	83